

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'l yozma huquqida

UDK: _____

XOSHIMOV HAKIMJON ABDUQAXXOR o'g'li

**INVESTITSIYA LOYIHALARINI BANK KREDITLARI
HISOBIGA MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

Mutahassislik: 5A230603-“investitsiyalarni boshqarish”

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: _____
(imzo)

i.f.n. dots. L.S.Zoyirov
(ilmiy darajasi va unvoni, familiyasi ismi sharifi)

Toshkent - 2017

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI BANK KREDITLARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRISHNING NAZARIY HUQUQIY ASOSLARI	9
1.1. Investitsiya loyihalarini moliyalash tizimida bank kreditlarini o'zni va ahamiyati	9
1.2. Investitsiya loyihalarini bank kreditlari hisobiga moliyalashtirishning huquqiy asoslari	18
1.3. Investitsiya loyihalarini bank kreditlari hisobiga moliyalashtirishning xorij tajribasi va uni O'zbekiston uchun amaliy ahamiyati	27
I bob bo'yicha xulosa	39
II BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI BANK KREDITI HISOBIGA MOLİYALASHTIRISH TAHLILI	41
2.1. Tijorat banklarining ustav kapitalini oshirish va depozit bazasini mustahkamlash yo'nalishlari tahlili.....	41
2.2. Tijorat banklari tomonidan loyihalarni investitsion kreditlash amaliyoti tahlili	50
2.3. "Bo'z Gazmol" investitsion loyihasining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi tahlili	57
II bob bo'yicha xulosa.....	63
III BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI BANK KREDITLARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	64
3.1. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonida banklar ishtiroki muammolari va rivojlantirish chora tadbirlari	64
3.2. Investitsiya loyihalarini bank kreditlari hisobiga moliyalashni takomillashtirish yo'llari	70
III bob bo'yicha xulosa.....	76
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	80
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	84

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda, tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnologik yangilash jarayonlarini yanada tezlashtirish lozim. Bu esa o'z navbatida iqtisodiyotga yirik hajmda investitsiyalar kiritishni talab qiladi va mazkur jarayonda tijorat banklari muhim muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizdagi tijorat banklarining investitsion jarayonlarda faol qatnashishi iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda va mamlakatning iqtisodiy salohiyati yuksalishida muhim o'rin tutadi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuskorligida islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvor yo'nalishlarini o'zida aks ettirgan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan to'g'risida"gi farmoni loyihasining 3-yo'nalishida respublika moliya-bank tizmini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori reyting ko'rsatkichlarga erishish haqida quyidagini ta'kidlab o'tdilar: "bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investitsion loyihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish"¹

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda bugungi kunda asosiy e'tibor iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar va ularning salmog'iga qaratilmoqda. Chunki, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsiyalarning hajmi va ularning tarkibi muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalar hajmi yildan yilga oshib bormoqda. Milliy iqtisodiyotga o'tgan yili kiritilgan jami investitsiyalar xajmi 2015 yilga nisbatan 9,6 foizga ko'p bo'lib,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.

qiymati 16 milliard 600 million AQSh dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yimalarning 22,3 foizdan ortig'i yoki 3,7 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi². Mamlakatimizda investitsiya faoliyatini yanada rivojlantirishda tijorat banklarining o'rni juda katta. Banklar iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, uy-joylar qurilishini, transport va infratuzilmaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish va amalga oshirish orqali iqtisodiyotda investitsion faoliyatning yanada rivojlanishiga hissa qo'shadi. Tijorat banklarning kapitallashuv darajasi hamda depozitlari hajmining o'sishi aktiv operatsiyalar hajmining oshishiga va investitsiyalar hajmini kengayishiga ta'sir etadi.

Mamlakatimiz tijorat banklari jami aktivlari 2012 yil 34344 milliard so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2016 yilda 80362 milliard so'mni tashkil qilmoqda. Bundan ko'rinadiki, banklarimizning moliyaviy holatini yildan yilga yanada yaxshilanib borayotganligi bevosita iqtisodiyotimizning barqaror sur'atlarda taraqqiy etishiga, shu jumladan investitsion faoliyatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklarining investitsion faoliyati yildan yilga ortmoqda. 2016 yil mobaynida tijorat banklarining investitsiya jarayonlaridagi ishtiroki yanada faollashib, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan 2016 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 10,2 trillion so'm miqdorida investitsion kreditlar ajratildi. Bu ko'rsatkich 2015 yil, 1 yanvar holatiga nisbatan 1,7 trillion so'm ko'proq³.

Yuqorida keltirilgan ijobiy natijalarga qaramasdan investitsiya faoliyatini tijorat banklari tomonidan moliyalashtirishda bir qator hal etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjud. Xususan, investitsion loyihalarni kreditlash jarayonini tartibga soluvchi huquqiy bazaning takomillashmaganligi, tijorat banklari tomonidan investitsiyalash natijasida ko'zlangan daromadni o'z vaqtida kelib

² 2016 yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2017 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. "Bozor, pul va kredit"//1/2016 (www.bpk.uz)

³ Markaziy bank ma'lumotlari asosida tayyorlandi. www.cbu.uz

tushmaslik riski yuqoriligi va shu kabi muammolarning mavjudligi mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqot obyekti va predmetining belgilanishi. Mazkur dissertatsiya ishining tadqiqot ob'yekti bo'lib O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari investitsiya faoliyati hisoblanadi. Tadqiqot predmeti bo'lib, tijorat banklari investitsiya faoliyati va uni amalga oshirish amaliyotidagi moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tijorat banklarida investitsiya faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslari, jahon tajribasi va o'zbekiston amaliyotini o'rganib, ularga asoslangan holda, respublika tijorat banklarida investitsiya faoliyati mexanizmini takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish tadqiqotning maqsadi bo'lib hisoblanadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi:

- investitsiya faoliyati va uni amalga oshirishning ilmiy-nazariy asoslarini ochib berish;
- investitsiya faoliyatini takomillashtirishda tijorat banklari ishtirokining zarurligi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- tijorat banklarining investitsiya faoliyatini amalga oshirishdagi me'yoriy-huquqiy asoslar bilan tanishib chiqish;
- investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarining tarkibi va dinamikasini tahlil qilish;
- investitsiya faoliyatini amalga oshirishda tijorat banklari ishtirokining amaldagi holatini tahlil etish;
- investitsiya faoliyatini tijorat banklari tomonidan moliyalashtirishdagi muammolarni aniqlash;
- investitsiya faoliyatini takomillashtirishda tijorat banklari ishtirokini oshirish va rivojlantirish bilan bog'liq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Ilmiy yangiligi. Tadqiqotni amalga oshirish va nazariy-amaliy tahlil va tadqiqotlarni yuzaga chiqarish davomida quyidagi yangiliklarga erishildi:

- O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari investitsiya faoliyatining

institutSIONal asoslari tasniflandi;

- tijorat banklari iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkichlari holatini tahlil qilish natijasida uning investitsiya faoliyati bo'yicha istiqbol uchun prognozlar ishlab chiqildi;

- tijorat banklari investitsiya faoliyati samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarning aniqlanishi orqali investitsiya siyosati yuritish konseptsiyasi ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha tavsiyalar berildi;

- iqtisodiyotda tijorat banklarining investitsiya faoliyatini takomillashtirish bo'yicha muammolar aniqlandi;

- iqtisodiyotda tijorat banklarining investitsiya faoliyatini takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tijorat banklari investitsiya faoliyatini amalga oshirish texnologiyasini takomillashtirish , bu jarayonning turli jabhalarda monitoring qilinish tizimini yaratish, tijorat banklari investitsiya faoliyati samaradorligini baholash nazorat tizimini qo'llagan holda boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish faraziga asoslanadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha qisqacha adabiyotlar sharhi(tahlili). Mamlakatda investitsiya faoliyatini rivojlantirishda investitsiya faoliyatida tijorat banklarining rolini oshirishning nazariy va amaliy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlardan – В.В. Бочарев, Игошина Л.Л., Ивасенко А.Г., Игонина Л.Л., Морозов Д.С., Нешиной А.С., Родионов И., Никконен А., Ромаш В. М., Шевчук В. И. va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.⁴

Dissertatsiya mavzusining ba'zi yo'nalishlari va alohida tomonlarini mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan Abdullaeva Sh.Z., Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G., Vaxobov A.V., Malikov T.S., Karimov N.G', G'ozibekov

⁴ Бочарев В.В. Методы финансирования инвестиционной деятельности предприятий. – М.: «Финансы и статистика», 1998. – 160 с.; Игошина Л.Л. Инвестиции. Уч. пос. – М.: «Экономист», 2005. – 216 с.; Ивасенко А.Г. Инвестиции: источники и методы финансирования / 3-е изд. перераб. и доп. – М.: «Омега-Л», 2009. – 261 с.; Игонина Л.Л. Инвестиции: учебное пособие / под ред. д-ра экон. наук, проф. В.А.Слепова. – М.: «Экономистъ», 2005. – 478 с.; Морозов Д.С. Проектное финансирование: управление рисками и страхование. – М.: «Анкил». 1999. – 196 с.; Нешиной А.С. Инвестиции: Учебник. – М.: «Дашков и К⁰», 2006. – 328 с.; Родионов И., Никконен А. Венчурный капитал и прямые инвестиции в инновационной экономике. Курс лекций, Лекции 1-2. – СПб.: «РАВИ», 2012. – 173 с.; Ромаш В. М., Шевчук В. И. Финансирование и кредитование инвестиций. Учеб. пос. – Минск: «КНИЖНИЙ ДОМ», «МИСАНТА», 2004. – 160 с.

D.G', Mamatov B.S., Xo'jamqulov D.Yu., Nurbekov O.Sh., Toshov O. kabi mualliflar o'z ishlarida yoritib berganlar.⁵

Iqtisodiy adabiyotlarda tijorat banklarining investitsion kreditlari resurs bazasini shakllantirish va barqaror resurslarni jalb qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy muammolar mustaqil ilmiy-tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Mazkur dissertatsiyani tayyorlashda O'zbekiston Respublikasining qonunchilik va me'yoriy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari hamda davlat idora organlarining investitsiya faoliyatini amalga oshirishga oid amaldagi nizomlar hamda tartiblardan foydalanildi. Tadqiqotda moliyaviy, strategik va investitsion tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishi natijalarining nazariy ahamiyati shundaki, uning natijalaridan banklarning investitsion faoliyati va kreditlash amaliyoti uchun zarur bo'lgan tushunchalarni shakllantirishda, kelajakda mazkur masalalar bo'yicha chuqur o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishi natijalarining amaliy ahamiyati, dissertatsiya investitsion kreditlash amaliyotini takomillashtirish va uzoq muddatli kredit resurs bazasini shakllantirishga oid qonun va qonunosti hujjatlarini ishlab chiqishda foydalanish bilan belgilanadi.

Ish tuzilmasining tasnifi. Mazkur dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Dissertatsiyaning birinchi bobida investitsiyalar va investitsiya faoliyatining

⁵Abdullaeva Sh.Z. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. – T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2005. – 585 b.; Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: "Moliya", 2010. – 325 b.; Vaxabov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: "Noshir", 2011. – 800 b.; Karimov G.G'. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. – T.: "Fan va texnologiya", 2007. – 240 b.; G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: "Moliya", 2003. – 332 b.; G'ozibekov D.G'. va boshq. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. – T.: "Fan va texnologiya", 2004. – 246 b.; Mamatov B.S., Xo'jamqulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. Toshkent moliya instituti. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2014. – 600 b.; Toshov O. Investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish. – T.: "Akademnashr", 2012. – 166 b.

mohiyati, turlari va unga ta'sir etuvchi omillar, mamlakat investitsiya faoliyatini oshirishda tijorat banklari ishtirokining zarurligi hamda investitsiya faoliyatini va tijorat banklari investitsiya faoliyatidagi ishtirokini amalga oshirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy asoslari ifodalangan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarining tarkibi va dinamikasi, Mamlakatimizdagi tijorat banklarining investitsiya faoliyatidagi ishtirokining amaldagi holati tahlili, xususan, ATIB "Ipotekabank" moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari va investitsiya faoliyatini amalga oshirishdagi ishtiroki tahlil qilingan.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobida iqtisodiyotda investitsiya faoliyatini takomillashtirish va moliyalashtirishda tijorat banklarining rolini oshirish bilan bog'liq muammolarni hal etishning umumiy jihatlari muhokama qilingan, tijorat banklarining investitsiya faoliyatini takomillashtirish yo'llari taklif qilingan.

Xulosa va takliflar qismida tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotda investitsiya faoliyatini takomillashtirishda tijorat banklarini ishtirokini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

I BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI BANK KREDITLARI HISOBIGA MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Investitsiya loyihalarini moliyalash tizimida bank kreditlarini o'rni va ahamiyati

Investitsiyalar zamonaviy iqtisodiyotda nihoyatda muhim rol o'ynaydi, chunki investitsiyalar bo'sh moliyaviy resurslarga ega bo'lgan bozor sub'ektlari uchun foyda olish maqsadida jamg'armani samarali joylashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni kengaytirish, aholini ishsiz qatlamlarini ushbu tarmoq korxonalarining ish bilan ta'minlash hamda shu orqali aholi farovonligiga erishishga yordam beradi.

Investitsiyalarni moliyalashtirish ayrim manbalarining o'rni va roli, ko'p jihatdan, makroiqtisodiy muvozanat hamda o'sish barqarorligi, mulkchilik shakllarining rivojlanish darajasi va o'zaro nisbatlari, bank-moliya tizimining rivojlanganligi va boshqalar bilan belgilanadi. Investitsiya loyihalari bo'yicha qarorlar qabul qilishda iqtisodiyotning moliya sektorining rivojlanishidagi ob'ektiv shart-sharoitlarni, investitsiya qarorlarini qabul qilishga aniqlik kiritadigan va ta'sir ko'rsatadigan moliyaviy vositachilik darajasini, ulardan foydalanish vositalari hamda mexanizmlarini hisobga olishga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyotning real sektoridagi investitsiyalarni moliyalashtirish manbai tarzida bank kreditining roli, asosan, jamg'armalarning o'sish sur'atlari, pul, valyuta hamda kapital bozorlarining holati bilan aniqlanadi va belgilanadi.

Moliyaviy vositachilikda raqobat muhitining mavjudligi va umuman Markaziy bankning pul-kredit, foiz siyosati va bank institutlari strategiyasi aniqlovchi omillar sifatida qaraladi. Bu jihatdan jami investitsiya faoliyati samaradorligini oshirishdagi bosh yo'nalish moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, qaytarilmaslik sharti bilan byudjet hisobidan moliyalashtirishdan investitsiyalarni kreditlashga o'tishdan iborat. Bank krediti evaziga mablag'

ajratishda ehtimoli bo'lgan jami risklar bir qadar to'liqroq hisobga olinadi, ularni kamaytirish yo'llari belgilanadi, kreditni qaytarish muddatlari, manbalari va ularning foizlarini to'lash chora-tadbirlari ko'riladi. Ssudalarning oldindan belgilangan muddatlarda qaytarilishi majburiyligi va kreditning to'lovligi asosiy kapitalga safarbar etiladigan investitsiyalardan oqilona foydalanishga ko'maklashadi va qarz vositalaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish quvvatlarini o'z vaqtida ishga tushirish va o'zlashtirish mas'uliyatlarini oshiradi. Iqtisodiy asoslangan holda investitsiyalarni kreditlashni tashkil qilish ularning samaradorligini ko'tarishda alohida ahamiyatga egadir.

Birinchidan, kreditning ishtiroki kapital sarflarni iqtisodiy sub'ektlar faoliyatining pirovard iqtisodiy natijalariga uzviy bog'lanishini ta'minlashga yordam beradi va o'z navbatida loyihaviy qarorlarining eng tejamkor variantlarini tanlashdan manfaatdorlikni ta'minlaydi.

Ikkinchidan, qarzning asosiy miqdorini va u bo'yicha foizlarni qaytarish manbai bo'ladigan foydani o'stirish imkoniyatlarini faol izlashni rag'batlantiradi. Shu bilan birga loyihalarni moliyalashtirish uchun bank kreditlarini berish, bank, kredit, foiz va boshqa risklarni, kredit resurslarini qaytarmaslik risklarini ko'paytiradi. Bu esa banklarni har tomonlama o'ylangan, «etti o'lchab, bir kesilgan» qarorlar qabul qilishga majbur qiladi.

Bank kreditining lizing krediti kabi muqobil shaklini qo'llash uning ta'minlanganlik tamoyilini kafolatlaydi. Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarida qarz mablag'larining ishtirokini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, garchi keyingi yillarda ularning roli keskin oshganligi sezilsa ham, lekin shunga qaramay investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarida kreditning solishtirma hissasi ko'tarilmayapdi, uni jadval ma'lumotlari ham tasdiqlaydi.

Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov tashabbuslari bilan qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo'lib kelmoqda. Investitsiya jarayonlarini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida 2009 yildan to hozirgi kunga qadat investitsiya hajmi sezilarli darajada ortib kelmoqda.

Joriy 2017 yilda Prezidentimiz Shovkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan amalga oshirilgan qator hamkorlik bitimlari, yirik investitsiya loyihalarini, hududlarni rivojlantirishdagi amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilingan yangi qonun loyihalari 2017- 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi, jarayondagi mutlaq davomiy ishlar desak mubolag'a bo'lmaydi.

Faol investitsiya siyosatining amalga oshirilishi tufayli 2016 yilda 49,5 trln.so'm miqdoridagi kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi va ushbu ko'rsatkich bo'yicha o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 9,6%ni tashkil etdi. Jalb etilgan investitsiyalarning 67,2%i ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirildi, shu bilan birga zamonaviy, yuqori texnologiyali uskunalarni xarid qilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning umumiy o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmidagi ulushi 34,6%ni tashkil etdi.

“Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab quvvatlash va kichik ishlab chiqarishlarni tashkil etish maqsadida, investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonida tijorat banklari tomonidan 2016 yil davomida iqtisodiy sub'ektlari uchun 16 trln.so'm atrofida yoki o'tgan yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p kreditlar ajratildi, shundan 3,3 trln.so'mni mikrokreditlar tashkil etdi. Ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini yanada rag'batlantirish va har tomonlama qo'llab quvvatlash bo'yicha qabul qilinayotgan chora-tadbirlar 2016 yil davomida 32 mingta yangi kichik biznes sub'ektlarining tashkil etilishiga zamin yaratdi. Natijada, kichik biznesning ulushi YAIMda 56,9%gacha (2015 yilda 56,5%), sanoatda 45%gacha (40,6%), investitsiyalarda 40,3%gacha (36,3%) va bandlikda 78,1%gacha (77,9%) o'sdi;”⁶

O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 9 dekabr yangi tahriridagi “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonunning 1-moddasiga muvofiq:

- investitsiyalar-qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar

⁶ O'zbekiston iqtisodiyoti axborot tahlil byulliteni 2016 yanvar – dekabr oylari. «SEAL MAG» Toshkent 2017y.

hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar;

- investor-investitsiya faoliyati obyektlariga o'z mablag'larini investitsiya qilishni va boshqa investitsiya resurslarini jalb etishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti;

- investitsiya majburiyati-investitsiya loyihasida nazarda tutilgan muayyan maqsadlarga erishish uchun investorning o'zi qabul qiladigan majburiyati;

- investitsiya faoliyati-investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui;

- investitsiya faoliyati ishtirokchisi-investorning buyurtmalari bajarilishini ta'minlovchi investitsiya faoliyati subyekti;

- reinvestitsiyalar-investitsiyalardan olingan, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga kiritiladigan har qanday daromad, shu jumladan foyda, foizlar, dividendlar, royalti, litsenziya va vositachilik haqi, texnik yordam, texnik xizmat ko'rsatish uchun to'lovlar hamda boshqa shakldagi mukofotlar.

Fikrimizcha, ushbu yangi tahrirdagi qonunda investitsiyalarga avvalgi qonundagi berilgan ta'rifga nisbatan birmuncha kengroq yondashilgan. Ya'ni, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar bilan bir qatorda intellektual mulkka bo'lgan huquqlar va reinvestitsiyalar ham kiritilgan.

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan tashqari bir guruh iqtisodchi olimlar ham investitsiya va investitsiya faoliyatiga ilmiy izlanishlari natijasida o'z fikrlarini bildirganlar. Jumladan, prof. D.G'.G'ozibekov investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini moliyaviy kategoriya sifatida talqin etib, quyidagicha ta'rif berib o'tgan: "Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, rikslar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi".⁷

Iqtisodchi olim, professor N.H.Haydarov investitsiyalar mazmun-

⁷ G'ozibekov D.G' . Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: "Moliya" nashriyoti. 2003. 26 bet.

mohiyatiga quyidagi ta'rifni beradi: "Investitsiya – bu mulk shaklidan qat'iy nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o'z boyliklarini qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflashidir".⁸

Professor I.A.Ahmedov investitsiyalarni quyidagicha ta'riflagan: "Investitsiya deyilganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo'naltirilib daromad keltirilishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur".⁹

Prof. D. Tojiboyeva fikricha: "Iqtisodiy nazariyada investitsiya deganda, kelajakdagi natija uchun ishlab chiqarishni kengaytirish yoki rekonstruksiya qilish, maxsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash, malakali mutaxassislar tayyorlash va ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga mo'ljallangan moliyaviy resurslar tushuniladi".¹⁰

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq.

O'zbekiston Respublikasi hududida banklar tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni uzoq muddatli kreditlashni tashkil qilish tartibi tijorat banklarining ichki kredit siyosati, O'zbekiston Respublikasi "Markaziy bank to'g'risida", "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunlarga, Markaziy bankning "Tijorat banklarining kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida" gi Nizomi va boshqa amaldagi qonun hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi xududida banklar tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning uzoq muddatli kreditlash jarayonlarini tartibga soladi. Hozirgi kunda ko'pgina tijorat

⁸ Haydarov N.H. iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. I.F.D ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. G' T.: TMI, 2003. 29 b.

⁹ I.A. Ahmedov va boshqalar. "Investitsiya va lizing asoslari" o'quv qollanma T.:TDIU., 2012

¹⁰ Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi: ikkinchi bob: oily o'quv yurtlarida talabalar uchun o'quv qo'llanma/M.Sharifxo'jayev ilmiy tahriri ostida. T.: "Sharq" 2003. -B.79

banklari uzoq muddatli kreditlash jarayonini o'zlarining ichki kredit siyosatidan kelib chiqqan holda mustaqil amalga oshiradilar.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda "tijorat banklari krediti bank investitsiyasidan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

Birinchidan, bank krediti, bank mablag'larini nisbatan qisqa vaqt ichida foydalanishga beradi va kredit summasini hamda u bo'yicha foiz stavkasini o'z vaqtida qaytarishni talab qiladi. Investitsiyada esa qo'yilgan mablag'lar (qo'yilmalar) hali o'z egasiga qaytarib kelishidan oldin uzoq davr mobaynida bankka daromad olib kelishini bildiradi.

Ikkinchidan, bank kreditida kredit munosabatlarini yuzaga keltirish bo'yicha tashabbus qarz oluvchi tomonidan o'rta tashlanadigan bo'lsa, investitsiya esa qimmatli qog'ozlar bozorida aktivlarni sotib olishga intiluvchi tijorat banki tashabbus ko'rsatadi.

Uchinchidan, bankning kredit shartnomasida bank kam miqdordagi kreditorlar orasida asosiydir. Investitsion shartnomalar esa tijorat banki ko'plab kreditorlardan biridir.

To'rtinchidan, bank kreditida bank va qarz oluvchi bevosita kredit shartnoma orqali bog'langan bo'lib, ularning faoliyatiga hech kim aralashmaydi. 8 Investitsiya esa turli xil qimmatli qog'ozlar orqali korxona, tashkilotlarning faoliyati bilan bankning faoliyati bog'lanib ketadi."¹¹

Investitsiya faoliyatida tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyat olib borishdan asosiy maqsad ularning daromadliligi va likvidliligini (bankning faoliyati bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olish qobiliyati) ta'minlashdan iborat. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida tijorat banklarining investitsiya siyosati bank faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va banklarning likvidliligini ta'minlaydi. Banklarning investitsion faoliyati turli xil qimmatbaho qog'ozlar: oddiy va imtiyozli aksiyalar, obligatsiyalar, davlat qarzдорlik majburiyatlari, depozit sertifikatlari, veksel va boshqalarga mablag'larini qo'yish orqali amalga oshiradilar.

¹¹ Imomov Hamdulla "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" T: 2011 yil 27 - b.

“Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ 2009 yil 28 iyulda qabul qilinishi tijorat banklarning investitsiya faoliyatida va investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda faol ishtirok etishini taminlab berdi.

Tijorat banklarining investitsiya faoliyatida ishtiroki ularning ko‘p qirrali faoliyatlarni amalga oshirishi tushuniladi va bu faoliyatlar moddiy va moliyaviy boyliklarni yaratadigan ob‘ektlarga sarflanadigan moliyaviy resurslarni jamlash, nazorat qilish, loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirishda tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov takidlaganlaridek“...bugungi kunda bank tizimini isloh qilish borasida eng muhim vazifalar banklarning o‘z ustav kapitalini ko‘paytirish, aholi, tadbirkorlik su‘ektlari va sarmoya kiritish mumkin bo‘lgan investorlar, shu jumlayan, xorijiy investitsiyalarning bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish uchun aksiyalar chiqarish va ularni fond bozorlarida faol joylashtirish kabi kompleks choralarni amalga oshirishdan iborat bo‘lmog‘i lozim...”¹² . Darhaqiqat investitsiyalarni moliyalashtirishda tijorat banklarining har tomonlama o‘rni yuqori sanalib investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonida birgina bankning o‘zi ishtirok etmasdan balki aholini, horijiy investrlarni kapitalini jalb qilishda hamda moliya bozorining faol rivojlanishida hizmat qiladi.

Shu o‘rinda aytish joizki, so‘nggi yillarda banklarni e‘tibori investitsiya faoliyatining quyidagi nufuzli yo‘nalishlariga qaratilgan: yirik aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini boshqarish, investitsiya va xususiylashtirish fondlari bilan ishlash, sanoat tarmoqlarining avtomobilsozlik, neftigaz, aloqa hamda uy joylarning qurilishiga.

Investitsiyaloyihalarini moliyalashtirishda bank kreditlari hisobiga amalga oshirishningsamarali tashkil etilishi bu banklarning investitsiya portfelining to‘g‘ri tashkil etganiga bog‘liq bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida investitsiyalarning

¹² Karimov.I.A.“Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to‘liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayotimiz garovidir” - T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2007. 43 b.

funksional tuzilmasi to'liq shakllanganligida o'z aksini topadi. Investitsiyalarning funksional tuzilmasi barcha mablag'larni o'z ichiga olishi zarur. Bunda, ularni qayta ishlab chiqarish tuzilmasini, texnologik, mulk shakllarini, tarmoqlarini mintaqaviy va hududiy, moliyaviy, iqtisodiy, moliyalashtirish manbalari va jamg'arma qo'yilmalari hududiy tuzilmasini o'z ichiga qamrab oladi. Mana shu holda investitsiyalarning funksional tuzilmasi to'liq shakllangan bo'ladi. Bu tuzilmaning to'g'ri tashkil etilishi banklarning investitsiya portfelining to'g'ri tashkil etish imkonini beradi.

Tijorat banki tomonida investitsiya faoliyatini amalga oshirish katta moliyaviy resurslarni, shu jumladan qarzga olinganlarini ham safarbar qilinishini talab qilgani sababli, tijorat banki investitsiya portfelini shakllantirish paytida unga doimiy to'lovga qobillikni ta'minlaydigan yuqori darajali joriy daromadli loyihalarni kiritish lozim. Bundan tashqari, joriy daromadlarning bir qismi investitsiya faoliyati optimal tuzilmasini saqlab turish maqsadida jamg'armalashtirilishi mumkin.

Investitsiyaloyihalarini moliyalashda tijorat banklarining investitsiya faoliyati likvidligini yetarli darajasini ta'minlash. Investitsiya portfelini samarali boshqarilishiga erishish, jamg'armani nisbatan foydali investitsiya dastaklariga tez fursatda qayta investitsiyalash imkoniyatlarini ta'minlash uchun investitsiya portfelining ma'lum qismi yuqori likvidli xarakterga ega bo'lishi lozim. Investitsiya portfelining likvidlik darajasi davlatning investitsion iqlimi, investitsiya bozori kon'yunkturasining jo'shqinligi hamda banklar investitsiya faoliyatining o'ziga xos xususiyati bilan belgilanadi.

Tijorat banklarining investitsiyalar bozoridagi investitsiya faoliyatini iqtisodiy mohiyati va ahamiyati shundaki, turli sohalarda faoliyat yurituvchi mijozlarni tijorat banklarga jalb qilish yo'li bilan investitsiyalar bozorini takomillashtirish, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, foyda olish maqsadida xo'jalik yurituvchi su'ektlarni bo'sh moliyaviy resurslarini investitsiyalarga samarali joylashtirish va investitsiya faoliyati natijasida tadbirkorlik faoliyati

ob'ektlarini mulkiy va intellektual boyliklarini daromad shakli va boshqa foyda samaradorligiga yo'naltirishdan iboratdir.

Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini amalga oshirish strategiyasi, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda bank investitsiya faoliyatining maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari va uslublari bilan farqlanuvchi quyidagi bosqichlarning ajratib ko'rsatilishini ko'zda tutadi:

- boshlang'ich bosqich – bu 1995 yildan boshlab 1999 yilgacha bo'lgan davr bo'lib, ayrim tijorat banklarining (masalan, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Asakabank) yagona yo'nalishga ega bo'lgan yirik investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishdagi ishtiroki mazkur davrga xosdir;

- barqaror rivojlanish bosqichi. Bu bosqich 2000 yildan boshlanib hozirgi kungacha davom etmoqda, mazkur davr chegaralarida investitsiya o'sishi davom etmoqda, tijorat banklarining investitsiya faoliyati kengaymoqda, ammo eng muhimi, bank investitsiyalarining mamlakat umumiy investitsiya faoliyatiga ta'siri kuchaymoqda;

- uchinchi bosqich , 2005 yildan keyin boshlanib, bunda kompleks multiplikativ turdagi investitsiya loyihalari afzal ko'rilishi bilan ajralib turadi. Buning evaziga iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgartishlar amalga oshirilishi va mamlakat ishlab chiqarish salohiyatini barqaror ravishda o'stirishga erishish mumkin bo'ladi.

- to'rtinchi bosqich yangilanish va takomillashish bosqichi. 2010 yil dan boshlangan bo'lib bu bosqichda qolgan bosqichlardagi kabi tijorat banklari tomonidan faol investitsiya faoliyatiga e'tibor berilgan. Bu bosqichning asosiy ahamiyani iqtisodiyotdayangi, yirik loyihalarni moliyalashtirish hamda dastlabki bosqichlarda amalga oshirilgan loyihalarni takomillashtirish ko'zga tashlanadi.

Tijorat banklarning samarali investitsiya faoliyatining asosiy maqsadi, eng samarali va xatarsiz moliyaviy dastaklarni tanlab olish orqali investitsiya strategiyasining amalga oshirilishini ta'minlash hisoblanadi. Asosiy maqsaddan kelib chiqib, tanlab olingan strategiya hamda uning amaliy investitsiya faoliyatini

amalga oshirish xususiyatlarini hisobga olib, bank investitsiya portfelini shakllantirishning aniq maqsadlari tizimi quriladi.

1.2 Investitsiya loyihalarini bank kreditlari hisobiga moliyalashtirishning huquqiy asoslari

Bozor munosabatlarini to'la shakllantirish hamda iqtisodiyotningg tarmoq va xududiy tuzilishida tarkibiy tuzulishlarni qayta o'zgartirishlar amalga oshirilayotgan xozirgi davrda investitsion faoliyatni kredit bilan ta'minlash hamda jalb etilgan investitsiyalardan samarali foydalanish mamlakatimiz iqtisodiyoti oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo'lib kelmoqda.

Investitsion kreditlar bilan ta'minlash iqtisodiy o'sishning eng muhim omili ekanligidan kelib chiqib investitsion kreditlash siyosati va investitsion kreditlarning faolligini oshirishining barqaror yo'nalishi mamlakatda vujudga kelgan barqaror ijtimoiy iqtisodiy ahvol va iqtisodiy iqlimining qulayligidan tashqari, investitsion kreditlarning jalb qilishni bugungi holatini ham ifodalaydi.

Investitsiya loyihalarini turli xil manbalar hisobiga moliyalashtirishda bank kreditlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shuni hisobga olib, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda bank tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi.

Qisqa davr mobaynida bank tizimini isloh qilish bo'yicha o'nlab qonun va qarorlar, yo'riqnomalar va tartiblar ishlab chiqildi. Hozirgi kunda respublikamizda 26 ta banklar faoliyat yuritmoqda. Ular mamlakatimizdagi barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga o'z faoliyatini rivojlantirishlari uchun kreditlar ajratmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizning eng yirik va rivojlangan banklari tomonidan ham investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu banklar o'z mablag'lari hisobidan hamda xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy banklarning kredit liniyalari orqali loyihalarni moliyalashtirishda faol qatnashmoqdalar.

Umuman olganda, loyihalarni moliyalashtirishda bank kreditlariga tayanish bozor iqtisodiyoti sharoitida odatiy holatdir. So'nggi yillarda respublikamizda bank tizimini rivojlantirish bo'yicha hukumatimiz tomonidan qator amaliy choralar ko'rilmoqda. Bunga misol qilib bank tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan hukumat qarorlari, Prezident Farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlarni keltirishimiz mumkin. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo'yicha qarorlarning qabul qilinishi natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga ortiqcha aralashishlar, keraksiz tekshirishlar, shuningdek, ular faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi salbiy kuchlar tugatilmoqda. Bundan tashqari, ular faoliyatini tijorat banklari tomonidan kreditlashdagi ortiqcha hujjatlarni talab qilish va kreditlash muddatlarini kechiktirish holatlariga ham asta-sekin barham berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarni samarali o'zlashtirish hamda investitsiya loyihalarining samarali amalga oshirilishiga xizmat qilmoqda. Bu borada mamlakatimizning birinchi prezidenti I.Karimov: - "Iqtisodiyotning barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoit, birinchi galda, moliya va bank tuzilmalarini, sug'urta, konsalting va lizing kompaniyalarini rivojlantirishga bog'liq"¹³ – deya ta'kidlagani bejiz emas.


Tijorat banklarining investitsion jarayonlardagi ishtirokini faollashtirish zarurati bank tizimi va milliy iqtisodiyotni uzviylikda barqaror rivojlantirish maqsadlaridan kelib chiqadi. Bir tomondan, tijorat banklari ularning faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarga ega bo'lgan barqaror iqtisodiy muhitga ehtiyoj sezsa, boshqa tomondan esa, iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi ko'p jihatdan bank tizimining ishonchlilik darajasiga hamda uning samarali faoliyat yuritishiga bog'liq bo'ladi.

Tijorat banklari tomonidan investitsiya operatsiyalarini amalga oshirishning ahamiyatini quyidagicha izohlash mumkin:

¹³ I.Karimov. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. – T.: "O'zbekiston", 2003. 179-bet.

- bank operatsiyalari turlarini kengaytirish, diversifikatsiyalash orqali;
- bank opratsiyalarini kengaytirish hisobiga bank risklarini qisqartirish;
- bankning qimmatli qog'ozlar bozorida faol ishtirkochi bo'lishini ta'minlash;
- bankning mijozlarini ko'proq jalb qilinishini ta'minlash;
- bankning daromad manbalarini kengaytirish.

Tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyat olib borishdan asosiy maqsad ularning daromadlilikini va likvidlilikini ta'minlashdan iborat.



1.1-rasm. Investitsiya faoliyati yo'nalishlari¹⁴

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida tijorat banklarining investitsion siyosati bank faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va banklarning likvidlilikini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Xalqaro amaliyotning ko'rsatishicha, tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish natijasida iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, banklar faoliyatini yanada

¹⁴ А.В.Беликова. Методический журнал "Инвестиционный банкинг" № 3(3)/2006.с-17

diversifikatsiyalash va kengaytirish hamda yangi daroamad manbalarining yuzaga kelishiga sharoit yaratadi.

Tijorat banklari tomonidan ular faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi turli xil omillarni hisobga olgan holda investitsiyalashning samarali shaklini tanlash qilona investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etadi. Tijorat ashkiloti sifatidagi faoliyati jihatidan qaraganda, banklarning iqtisodiy manfaatlari o'z operatsiyalarining likvidlilik va ishonchliligini saqlagan holda yuqori foydalilik darajasini ta'minlashdan iborat. Asosan banklar o'z mablag'lari hisobiga emas, balki jalb etilgan mablag'lar hisobiga faoliyat ko'rsatadi, shunga ko'ra, banklarning investitsion loyihalarni moliyalashtirishda risk darajasini baholashi lozim hisoblanadi.

Tijorat banklari investitsiya faoliyatining indikatorlari quyidagilardan iborat:¹⁵

- tijorat banklari investitsion resurslarning hajmi;
- investitsion resurslar real qiymati indeksi;
- bank investitsiyalari hajmi;
- banklar investitsion faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari, jumladan, investitsiyalar hajmi hisobiga aktivlar va foydaning qo'shimcha o'sishi;
- bank aktivlarida investitsion qo'yilmalarning ulushi;
- bank investitsiyaviy qo'yilmalarining tarkibiy ko'rsatkichlari;
- ishlab chiqarishga yo'naltirilgan mablag'larning moliyaviy aktivlarga yo'naltirilgan mablag'larga nisbatan daromadlilik ko'rsatkichlari.


Tijorat banklari investitsiya faoliyati shakllarining klassifikatsiyasi investitsiyalarning turlari va shakllari, shuningdek bank faoliyatining o'ziga xosligiga bog'liq.

Tijorat banklarining investitsiya kiritish uchun yo'naltiradigan mablag'larining manbalari o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lardan tashkil topadi. O'z mablag'lari bank kapitalidan iborat bo'lsa, jalb qilingan mablag'lar

¹⁵ А.В.Беликова. Методический журнал "Инвестиционный банкинг" № 3(3)/2006.с-17

turli shakldagi depozitlar hisobidan shakllanadi. Tijorat banklari faol investitsiya faoliyatini olib borishlari uchun, avvalo kapitallashuv darajalarini oshirish zarur.

Shu sababli mamlakatimizda banklarning kapitallashuv darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Erishilayotgan ijobiy ko'rsatkichlar esa xalqaro moliya tashkilotlarining ekspertlari tomonidan ham e'tirof etilmoqda.



1.2-rasm. Tijorat banklari investitsiya faoliyatining shakllari¹⁶

Banklarning investitsiya kiritish imkoniyatlari ko'p miqdordagi depozitlarga jalb qilingan mablag'lar hajmi va muddatiga bog'liq. Hozirgi davrda mamlakatimizda bank omonatlarining to'liq kafolatlanganligi va ularning mijozning birinchi talabiga ko'ra qaytarilishini yo'lga qo'yilganligi, aholining bank omonatlaridan olingan daromadlari soliqdan ozod qilinganligi hamda omonatga qo'yiladigan mablag'larning kelib chiqishi deklaratsiya qilinmasligi aholi bo'sh pul mablag'larini bank omonatlariga faol jalb qilish imkoniyatini bermoqda.

Bugungi kunda investitsiya sohasi iqtisodiyotning asosini tashkil etgan holada uning huquqish bazasini shakllantirish ham birinchi darajali masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini hamda investitsiya loyihalarini bank kreditlari hisobiga moliyalashtirishni

¹⁶ "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 1996 yil 25 aprel.

takomillashtirish masalalari yuzasidan hukumatimiz tomonidan ko'plab qonun hujjatlari qabul qilingan hamda amaliyotga tadbqiqilingan.

Misol uchun, bugungi kunda mamlakatimizda sinditsiyalashtirilgan kredit O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005 yil 20-avgustda 1509-son bilan ro'yxatga olingan hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2005 yil 16-iyuldagi 15/4-son qarori bilan tasdiqlangan, "Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Kafolat Fuqarolik kodeksining 299-moddasiga muvofiq kafolat beruvchining yetakchi va ishtirokchi banklar oldidagi yozma majburiyati shaklida rasmiylashtiriladi. Yozma majburiyat yetakchi bankda saqlanadi. Kafillik Fuqarolik kodeksining 292-moddasiga muvofiq, yetakchi va ishtirokchi banklar-benifitsiarlar foydasiga kafil, yetakchi, ishtirokchi banklar va qarz oluvchi tomonidan imzolanadigan yozma shakldagi kafillik shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Sinditsiyalashtirilgan kredit hisobidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish har bir ishtirokchi bank tomonidan Markaziy bankning Adliya vazirligida 2000 yilning 2 martida 906-raqam bilan davlat ro'yxatiga olingan "O'zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish tartibi to'g'risidagi Nizom (yangi tahriri)" asosida barcha zarur loyiha-smeta va boshqa hujjatlar nusxalari yetakchi bankka taqdim etilgandan keyin boshlanadi.

Tijorat banklari kreditlarini ajratish jarayonida birinchi navbatda e'tibor beriladigan narsa bu garov yoki kafolat miqdori hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, muomaladan chiqarilgan buyumlardan tashqari, har qanday mulk, shu jumladan, buyumlar va mulkiy huquqlar (talablar), qimmatli qog'ozlar (ishtirokchi banklar emitent bo'lgan qimmatli qog'ozlardan tashqari) va boshqalar garov predmeti bo'lishi mumkin. Bunda garov shartnomasi bir tomondan qarz oluvchi va ikkinchi tomondan ishtirokchi banklar tomonidan imzolanadigan shaklda tuziladi. Kafolat Fuqarolik kodeksining 299-moddasiga muvofiq kafolat beruvchining yetakchi va ishtirokchi

banklar oldidagi yozma majburiyati shaklida rasmiylashtiriladi. Yozma majburiyat yetakchi bankda saqlanadi. Kafillik Fuqarolik kodeksining 292-moddasiga muvofiq, yetakchi va ishtirokchi banklar-benifitsiarlar foydasiga kafil, yetakchi, ishtirokchi banklar va qarz oluvchi tomonidan imzolanadigan yozma shakldagi kafillik shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Hozirgi sharoitda ayrim xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati va umuman mamlakat iqtisodiyoti investitsiyalarni amalga oshirish hajmi va shakliga hal qiluvchi darajada bog'liq. Mamlakatda investitsiya faoliyati qonunlar tizimi bilan birga shuningdek, mamlakat Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solib turiladi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya munosabatlarini tartibga solish o'zagini 1998 yil 24 dekabrda 719-I – sonli “Investitsiya faoliyati to'g'risida”, 1998 yil 30 apreldagi “Xorijiy investitsiyalar to'g'risida”, 1998 yil 30 apreldagi “Kafolatlar va xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish choralari to'g'risida”gi Qonunlar tashkil etadi. Shuningdek “Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PQ 2009 yil 28 iyulda qabul qilinishi sohada tijorat banklariga bo'lgan etiborni va ma'suliyatni yanada orttirdi hamda huquqiy baza yanada mustahkamlandi.

Investitsiya loyihalarini bank kreditlari hisobiga moliyalashtirish jarayonida banklar qimmatli qog'ozlar bozorida faol ishtirok etadilar. Qimmatli qog'ozlarni milliy bozori oborotlari o'sgani sari banklar uning eng faol institutsional qatnashchilariga aylanib, emissiya faoliyati hajmlarini, amalga oshiriladigan operatsiyalar nomenklaturasini hamda ko'rsatiladigan operatsiyalar assortimentini kengaytirib boradilar. Bank qimmatli qog'ozlar bozori va dastaklari bilan banklarni operatsiyalarining asosiy huquqiy bazasi O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Prezidentimizning farmonlarida belgilab berilgan, jumladan «Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida», «Banklar va bank faoliyati to'g'risida», «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarni huquqlarini himoyalash to'g'risida», «Qimmatli qog'ozlar bozorini amal qilish mexanizmi to'g'risida», shuningdek

tijorat banklari faoliyatini tartibga soladigan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlaridan iborat.

Respublikamizda xorijiy investitsiyalarga ham katta etibor qaratilib qator imtiyozlar ajratgan holda uning huquqiy bazasini ham mustahkamlab borilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatida nafaqat milliy banklar balki xorijiy banklarning ham faol ishtirokini kuzatishimiz mumkin. Ma'lumki, xorijiy banklar yoki xorijiy davlatning banki deganda xorijiy davlatga tegishli banklar tushuniladi. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida: "xorijiy davlatning banki xorijiy davlat hududida ro'yxatga olingan va u joylashgan hamda ro'yxatga olingan joydagi bank nazorati organi tomonidan berilgan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bank"¹⁷, deb ta'riflangan. Xorijiy davlatning banki vakolatxonasi esa O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, O'zbekiston Respublikasi hududida uning akkreditatsiya qilinganligi haqida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining sertifikatiga ega bo'lgan, bank va boshqa tijorat faoliyati bilan shug'ullanish huquqisiz bank manfaatlarini ko'zlab ish yuritadigan alohida bank bo'linmasidir.

So'nggi yillarda mamlakatimizning ishlab chiqarish tarmoqlariga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilib, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yuvchi, import o'rnini bosuvchi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Xorijiy banklarning kredit resurslarini investitsiya loyihalarini, shu jumladan, kichik biznes loyihalarini, ya'ni xususiy sektorni moliyalashtirishga jalb qilish va ularni samarali o'zlashtirish maqsadida Vatanimizga yuqori sifatli texnika-texnologiyalarni etkazib beruvchi investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosati olib borilmoqda, tashqi iqtisodiy faoliyat yanada erkinlashtirilmoqda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishni ta'minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yanada takomillashtirimoqda, xorijiy banklar kredit liniyalaridan to'liq foydalanish maqsadida kredit olish uchun taqdim etilayotgan texnik-iqtisodiy asoslashlarni

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2008 yil 22 noyabrdagi 685-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy davlatlarning banklari vakolatxonalarini akkreditatsiya qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom (Adliya vazirligida 2009 yil 23 yanvarda 1883-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan).

puxta-pishiq ishlab chiqish, investorlarning qo'ygan kapitali va ularning huquqlarini himoyalashni kafolatlashni yanada kuchaytirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Chet ellik investorlar uchun yaratilgan qulay biznes muhiti, keng huquqiy kafolat va imtiyozlar tizimi, qo'shma korxonalarni rag'batlantirishga qaratilgan butun bir chora-tadbirlar majmuasi milliy iqtisodiyotga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini tubdan ko'paytirish imkonini berdi.

Uzoq muddatli kreditlar - ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlar uchun mo'ljallangan ob'ektlarni, qurilish, rekonstruktsiya qilish, texnik qayta jihozlashga oid harajatlar bilan bog'liq kapital qo'yilmalarni moliyalash, texnika, texnologiyalar va uskunalarni harid qilish, asosiy chorva, ko'p yillik o'simliklarni shakllantirish, shuningdek, boshqa investitsiya maqsadlari uchun mo'ljallangan kreditlardir.

O'zbekiston Respublikasi hududida banklar tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni uzoq muddatli kreditlashni tashkil qilish tartibi tijorat banklarining ichki kredit siyosati, O'zbekiston Respublikasi "Markaziy bank to'g'risida", "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunlarga, Markaziy bankning "Tijorat banklarining kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida" gi Nizomi va boshqa amaldagi qonun hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Hududida banklar tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning uzoq muddatli kreditlash jarayonlarini tartibga soladi. Hozirgi kunda ko'pgina tijorat banklari uzoq muddatli kreditlash jarayonini o'zlarining ichki kredit siyosatidan kelib chiqqan holda mustaqil amalga oshiradilar.

So'ngi yillarda respublika bank tizimini yanada isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar 2010 yil 26 noyabrdagi PQ- 1438-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «2011-2015 yillarda respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar» Dasturi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining respublika

moliya-bank tizimini rivojlantirishga oid boshqa qarorlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda amalga oshirilmoqda.

1.3 Investitsiya loyihalarini bank kreditlari hisobiga moliyalashtirishning xorij tajribasi va uni O'zbekiston uchun amaliy ahamiyati

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda investitsiya loyihalarini moliyalashning qulay, foydali va zamonaviy usullaridan foydalanish va ular orasidan optimalini tanlab yuqori daromad olish asosiy maqsadlardan hisoblanadi. Shunday usullar orasida bank kreditlari hisobiga moliyalashtirish ham mavjud bolib bu ancha rivojlangan usullar sirasiga kiradi. Sababi banklar rivojlangan mamlakatlar amaliyotida juda kata moliyaviy investitsiya manbalarga ega tarmoq hisoblanadi.

Xorijiy banklarning kredit resurslarini investitsiya loyihalarini, shu jumladan, kichik biznes loyihalarini, ya'ni xususiy sektorni moliyalashtirishga jalb qilish va ularni samarali o'zlashtirish maqsadida Vatanimizga yuqori sifatli texnika-texnologiyalarni etkazib beruvchi investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosati olib borilmoqda, tashqi iqtisodiy faoliyat yanada erkinlashtirilmoqda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishni ta'minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yanada takomillashtirimoqda, xorijiy banklar kredit liniyalaridan to'liq foydalanish maqsadida kredit olish uchun taqdim etilayotgan texnik-iqtisodiy asoslashlarni puxta-pishiq ishlab chiqish, investorlarning qo'ygan kapitali va ularning huquqlarini himoyalashni kafolatlashni yanada kuchaytirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda xorijiy banklar xususiy sektorga alohida e'tibor bermoqdalar. Dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi xorijiy banklar, jumladan, Xalqaro Taraqqiyot Assotsiatsiyasi kredit liniyasi, Xususiy Sektorni rivojlantirish

bo'yicha Islom Korporatsiyasi moliyalashtirish liniyasi, Germaniyaning "Commerzbank AG", "Landesbank AG", "Landesbank Berlin AG" kredit liniyalari va Germaniya rivojlanish kredit agentligi (KfV), Koreya Eksport-import banki kredit liniyasi, shuningdek, Xitoy taraqqiyot Davlat banki kredit liniyalari, aynan, xususiy tarmoqni rivojlantirish uchun investitsiya kiritishga tayyor ekanliklari shundan dalolat beradi. Buning sababi shuki, xususiy tarmoqni rivojlantirish davlat mulkchiligiga asoslangan totalitar tuzumdan xususiy mulkchilik tamoyillari amal qiladigan demokratik jamiyatga o'tish jarayonining uzviy qismi bo'lib, o'ta muhim va hal qiluvchi o'rin tutishini unutmasligimiz kerak.

Aynan mulkchilik shaklining o'zgarishi iqtisodiyot va jamiyat hayotida ortga qaytarib bo'lmaydigan jarayonlar va o'zgarishlar uchun mustahkam zamin va asos yaratadi. Shundagina jamiyat hayotida ishlab chiqarish va ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etishning, mehnatga munosabatning tamomila yangicha tamoyillari amal qila boshlaydi.

Xorijiy banklar tomonidan mamlakatimizda kichik biznesni moliyalashtirishdagi faolligini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin. Jumladan, YaIMni shakllantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 2000 yildan buyon 31 foizdan 56,9 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 12,9 foizdan 34,1 foizga o'sdi. 2016 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida 5329 mingdan ortiq yangi ish o'rni tashkil etildi. Bu yaratilgan jami ish o'rinlarining yarmidan ortiq demakdir. O'tgan 2016 yilda 520 dan ziyod yangi korxona, birinchi navbatda, kichik biznes sub'ektlari eksport faoliyatiga jalb etildi. Bugungi kunda iqtisodiyotning ushbu sohasida ish bilan band bo'lgan aholining 76,5 foizdan ziyodi mehnat qilmoqda. 2000 yilda bu ko'rsatkich 49,7 foizga teng edi. Iqtisodiyot sohasida izchil amalga oshirilayotgan ana shunday chora-tadbirlar o'zining yuksak samarasini bermoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asosan xorijiy investitsiyalarni mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilinishi sababli investitsiyalar yuqori o'sish sur'atining ko'rsatkichi quidagilarda ko'rishimiz mumkin hisoblanadi:

xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish borasidagi chora tadbirlar amalga oshirilishi tufayli, joriy yilda 3,65 mlrd.dollar-lik xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi, o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 11,3%ni tashkil qildi. Bu mablag'larning 2,5 mlrd.dollardan ortig'i to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. Natijada o'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmida xorijiy sarmoyalar ulushi 20,1%dan 21,9%ga yetdi;

iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi bilan birgalikda moliyalashtiriladigan loyihalarning amalga oshirilishi natijasida, joriy yilda o'zlashtirilgan mablag'lar hajmi 788,4 mln.dollarni tashkil etdi. Ushbu mablag'larning asosiy qismi «Navoiyazot» AJda ammiak va karbamid ishlab chiqarishni qurish, azot kislotasi ishlab chiqarishni tashkil etish, Navoi-Konimex-Misken temir yo'l liniyasini qurish, «O'zbekiston xavo yo'llari» AJ havo kemalari parkini bir xillashtirish va yangilashni tashkil etish, Toshkent shahrida mehmonxona majmuini qurish kabi loyihalarni amalga oshirish doirasida zamonaviy texnologik uskunalar xarid qilish xamda asosiy vositalarni yangilashga yo'naltirildi;

Investitsiya loyihalarini bank kreditlari hisobiga moliyalashtirishning xorij tajribasiga nazar soladigan bo'lsak asosan yirik loyihalarni moliyalashtirish jarayonida ularning ishtirokini respublikamizda amalga oshirilayotgan loyihalarda ham ko'rishimiz mumkin. Misol uchun xorijiy bank va investorlar ishtirokida moliyalashtirilgan ustyurt gaz kimyo majmuasini keltirishimiz mumkin. Bu loyihaning amalga oshirilishi biz uchun ulkan tajriba hamda iqtisodiyotimiz rivoji uchun ulkan turtki bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2000 yil 12 martdagi "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-2564 sonli Farmonining qabul qilinishi, bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish, tijorat banklari mustaqilligini oshirish hamda ularni investitsiya jarayonlarining faol ishtirokchilariga aylantirish, dehqon, fermer xo'jaliklari hamda kichik biznes subyektlarini kreditlashni kengaytirish, banklarning omonatchilar manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish, shuningdek, banklar va ularning

mijozlari o'rtasida o'zaro manfaatli sheriklik munosabatlarini shakllantirish, xorijiy banklar bilan hamkorlikni yanada kengaytirishga muhim asos yaratdi. Shu munosabat bilan ular faoliyatida qator imtiyozlar, jumladan, tijorat banklari o'z foydasining 25 foizga qadar miqdorini ajratish yo'li bilan banklarda ishlab chiqarish mikrofirmalarini, kichik korxonalarini, dexqon va fermer xo'jaliklarini, yuqori texnologik va innovatsiya loyihalarini imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasini shakllantirish hamda ushbu jamg'arma mablag'lari hisobidan kredit berishdan oladigan daromadlari ana shu mablag'lar mazkur jamg'armaning resurslarini ko'paytirishga maqsadli yo'naltirilgan taqdirda 5 yil muddatga daromad solig'idan ozod etilishi belgilab qo'yildi.

Shuningdek, 2008 yil 18 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4053-sonli, hamda 2008 yil 28 noyabrdagi "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PF-4058-sonli hamda "Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4057-sonli Farmonlari, 2007 yil 12 iyuldagi "Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-670-sonli Qarorlarining qabul qilinishi tijorat banklari faoliyatining yanada rivojlantirilishini davlat tomonidan keng rag'batlantirishni ta'minlash imkonini yaratib berdi.

Tijorat banklari tomonidan, jumladan, ishlab chiqarishni tashkil etish va yo'lga qo'yish hamda mahsulotlarni sotishda muvaffaqiyatli ish tajribasiga ega boshqa investorlar ishtirokida yangi tashkil etilgan korxonalarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrdagi PF-4010-son farmoyishida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari tatbiq etilgan.

Investitsiya siyosatining samaradorligini ta'minlash iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari va hozirgi kun talablariga javob beradigan mukammal investitsiya

dasturini ishlab chiqishni va shuningdek hukumat tomonidan investitsiya jarayonlarini takomillashtirish maqsadida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va albatta huquqiy shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga katta e'tibor berishlari kerakligini takozo etadi.

Mamlakatda investitsiya faoliyatini tartibga solishning zaruriy asosi bo'lib, davlat qonunchiligi va uning huquqiy asosini shakllantirish hisoblanadi.

Bu borada huquqiy shart-sharoitlarni yaxshilash maqsadida respublikamizda "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi, "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari qabul qilinishi, bundan tashqari Respublikamiz Prezidenti tomonidan 2005-yil aprel oyida "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2010-yil 26-noyabrda "2011-2015-yillarda respublika moliya bank tizimini yanada isloh kilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yunalishlari to'g'risida"gi, 2009-yil 28-iyulda "Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yunaltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi ko'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2007-yil 12-iyulda "Banklarning kapitallashtirishini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirishdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, 2007-yil 15-avgustda "Investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun kreditlar berayotgan tijorat banklari tomonidan daromad (foyda) solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llash tartibi to'g'risida" Nizom va yaqinda 2015-yil 6-mayda "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Qarorlarning qabul qilinishi investitsion kreditlash jarayonlarini huquqiy jihatdan yanada takomillashishiga zamin yaratdi.

Investitsiya jarayonlarini moliyaviy ta'minlashning bozor mexanizmi tijorat banklarining foal ishtirok etishini talab etadi. Shu sabab, "Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli

kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori tijorat banklarining investitsiya faoliyati kengaytirilishini yanada rag'batlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga yo'naltirilgan uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalash hajmlarini oshirish uchun ularning resurs bazasini mustahkamlash maqsadida qabul qilindi.

Qarorga ko'ra quyidagilar investitsiya faoliyatini kengaytirish sohasida tijorat banklarining eng muhim vazifalari sifatida belgilab olindi:

- yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha bankning kredit hamda investitsiya siyosatini va investitsiya loyihalarini uzoq muddatli kreditlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, buning asosida bankning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash;

- loyiha hujjatlari, ularning moliyaviy jihatdan o'zini qoplashi va rentabelligini chuqur tahlil qilish asosida investitsiya loyihalarini puxta tanlab olish, kompleks baholash hamda sifatli ekspertiza qilishni ta'minlash;

- investitsiya loyihalarini moliyalashga o'z moliya mablag'larini sarflash va ulardan samarali foydalanish, loyihalarning amalga oshirib borilishini doimiy monitoring qilish, qo'yilgan mablag'larning o'z vaqtida va to'liq qaytarilishini ta'minlash;

- tavakkalchilik, garovlar va ta'minlashning boshqa turlari bozor qiymatini puxta baholashni hisobga olgan holda, berilgan kreditlarning o'z vaqtida hamda to'liq qaytarilishini ta'minlaydigan ishonchli mexanizmlardan keng foydalanish;

- investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan banklar bo'linmalarini professional tayyorlangan yuqori malakali kadrlar bilan mustahkamlash, investitsiya loyihalarini tanlab olish, ekspertiza qilish va amalga oshirish masalalari bo'yicha bank mutaxassislarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish sifatini tubdan yaxshilash.

Tijorat banklariga korxona va tashkilotlar – yirik investitsiya loyihalari tashabbuskorlariga loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va ularni investitsiya

loyihasini amalga oshirish uchun qabul qilishda umuman loyihani moliyalash uchun beriladigan kreditning umumiy summasiga kiritgan holda, ekspertizadan o'tkazish bo'yicha xarajatlarni moliyalashga kreditlar berishni amaliyotga tatbiq qilish tavsiya etilgan. Bundan tashqari ushbu qarorda, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston banklari uyushmasi va tijorat banklarining, banklarning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash uchun tijorat banklari tomonidan 2009-2010-yillarda yuridik shaxslar o'rtasida kamida 110 mlrd. so'm hajmda joylashtiriladigan uzoq muddatli obligatsiyalar chiqarish borasidagi taklifi qabul qilindi.

Prezidentimizning "2011-2015-yillarda respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qaroriga ko'ra, omonatchilar uchun kafolatlarni kuchaytirish va bank tizimiga aholi hamda xorijiy investorlarning ishonchini yanada mustahkamlash, yangi jozibali omonatlar va depozitlarni tatbiq etish, ko'rsatilayotgan bank xizmatlarining turi va ko'lamini kengaytirish yo'li bilan aholi hamda xo'jalik sub'ektlarining bo'sh mablag'larini bank aylanmasiga keng jalb etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish, hamda tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini kuchaytirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklari ishtirokini yanada kengaytirish, loyihalarni ekspertiza qilish va xatarni baholash tizimini takomillashtirish, kreditlar bo'yicha muammoli qarzlarning hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik borasida oldini olish choralari ko'rish yo'li bilan tijorat banklarining kredit portfeli muttasil o'sishi hamda sifati yaxshilanishini ta'minlash, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni moliyalashtirishning, aholi bandligi va farovonligini oshirishning g'oyat muhim vositasi sifatida mikromoliyalash sohasi rivojlanishini rag'batlantirish, tijorat banklarida hisob-kitob va hisobotlarning yangicha yondashuvlarini shakllantirish hamda zamonaviy texnologiyalari va uslublarni joriy qilish, moliya-bank axboroti saviyasi hamda sifatini oshirish, yetakchi xalqaro reyting tashkilotlari talablariga muvofiq undan keng ko'lamda foydalanishni ta'minlash, respublika tijorat banklari va moliya

institutlarini dunyoda qabul qilingan standartlar, uslubiyatlar va baholash ko'rsatkichlari tizimida ishlay oladigan, professional tayyorlangan yuqori malakali mutaxassislar bilan mustahkamlash, moliya-bank faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish kabilar respublikaning moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilangan.

Prezidentimizning «2011-2015-yil respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida» va «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik-yili» Davlat dasturi to'g'risida 2011-yil 7-fevraldagi PQ-1474-son qarorlarini bajarish yuzasidan shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini investitsiya loyihalaridagi ishtirokini rag'batlantirish yo'li bilan ularga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan "O'zbekiston Banklar uyushmasi huzuridagi Investitsiya loyihalari bo'yicha loyiha hujjatlarini tayyorlashni moliyalashtirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" karor kabul kilindi. Unga ko'ra jamg'armaning asosiy vazifalari etib iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida loyiha g'oyalarini tanlov bo'yicha tanlash va ularning loyiha hujjatlari ishlab chiqishni moliyalashtirish; respublika kredit tashkilotlari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirilishini tashkil etishga ko'maklashish belgilab olindi.

"Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi karori esa tijorat banklarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish, ularning investitsiya jarayonlarida, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda, ishlab chiqarishni modernizatsiyalashda, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashda keng ishtirok etishini ta'minlash maqsadida qabul qilinib, unga ko'ra quyidagilar belgilab olindi:

- banklarning nizom jamg'armasini ko'paytirish, ularning kapitaliga aholi, tadbirkorlik sub'ektlari va ehtimol tutilgan investorlar, shu jumladan xorijiy investorlarning bo'sh pul mablag'larini jalb qilish uchun aksiyalar chiqarish va

ularni fond bozorida faol joylashtirish hisobiga banklarning kapitallashuv darajasini oshirish;

- tijorat banklarining o'z kapitali hisobidan yangi zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil qilish hamda mavjud korxonalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashdagi investitsiya jarayonlarida keng ishtirok etishi, shu asosda raqobatbardosh, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va aholi bandligini oshirishni ta'minlash;

- naqd pulning bankdan tashqari aylanishini yanada qisqartirish, mijozlarni birinchi talabi bo'yicha naqd pul bilan uzluksiz va so'zsiz ta'minlash;

- mini-banklar tarmog'ini kengaytirish va banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat turlarini ko'paytirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;

- banklarni yuqori malakali professional kadrlar bilan mustahkamlash, banklarning xizmat ko'rsatish mas'uliyati va madaniyatini oshirish.

Banklar tomonidan investitsion kreditlar ajratishda "Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom ham asosiy me'yoriy huquqiy asos bo'lib xizmat kiladi. Bu nizomda sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish uchun bank sindikatini tashkil etish tartibi, kreditlarni rasmiylashtirish tartibi, sinditsiyalashtirilgan kreditlash, uning hisobini yuritish monitoringini olib borish va uni qaytarish tartibi keltirib o'tilgan.

Nizomga muvofiq, yirik investitsiya loyihasi uchun sinditsiyalashtirilgan kredit olish uchun, qarz oluvchi etakchi bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- kredit buyurtmasi;
- loyihaaning texnik-iqtisodiy asoslanishi;
- qarz oluvchining bank hisobvarag'iga pul tushumlari (pul oqimi) taxmini albatta ko'rsatilgan biznes-reja;

- qarz oluvchining kreditga layoqatliligini aniqlash uchun Davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) organi tomonidan tasdiqlangan 1, 2, 2a-shakllardagi oxirgi 3 yillik moliyaviy hisoboti;

- yetakchi bankning kreditlashni tashkil etishga doir ichki qoidalarida ko'zda tutilgan boshqa hujjatlar.

Har qanday kreditlash jarayonida monitoring olib borilishi shart. Xususan sinditsiyalashtirilgan kreditlashda ham monitoring muntazam olib boriladi. Yuqoridagi nizomga ko'ra yetakchi bank tomonidan qarz oluvchining kreditni qaytarish qobiliyatini, berilgan kreditdan maqsadli foydalanishi va garov holati yoki kafilning moliyaviy holati bo'yicha kreditdan foydalanishning butun muddati davomida monitoringni amalga oshiriladi. Ushbu monitoring ishtirokchi banklar talabi asosida, ular ishtirokida yoki kredit shartnomasida belgilangan tartibda har bir ishtirokchi bank tomonidan mustaqil amalga oshirilishi mumkin.

Investitsiya loyihalarini tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada kreditlash tartibi bo'yicha "Investitsiya loyihalarini erkin almashtiriladigan valyutada kreditlash to'g'risida" Nizom ishlab chiqilgan.

Nizomda xorijiy valyutada kreditlarni berish tartibi, xorijiy valyutada kreditlarni to'lash tartibi, xorijiy valyutadagi kreditlardan foydalanishi va ularning to'lanishini nazorat qilish kabi tartib qoidalar o'z aksini topgan. Ushbu nizomga ko'ra, vakolatli banklar o'z ustavlariga hamda ularga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining litsenziyalarida berib qo'yilgan valyuta operatsiyalarini amalga oshirish huquqlariga muvofiq yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar (keyingi o'rinlarda qarz oluvchilar) ni xorijiy valyutada kreditlashni amalga oshiradilar.

Qarz oluvchi kredit olishi uchun vakolatli bankka asosli tarzda taqdimnoma bilan murojaat etadi. Qarz oluvchining taqdimnomasi va unga ilova qilingan hujjatlar quyidagi axborotlarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak:

a) kreditni olishdan ko'zlangan maqsadni, kredit olish uchun zarur bo'lgan miqdor va muddatni;

b) xorijdan xarid qilinayotgan tovarning, mamlakatning tavsifini, to'lov valyutasini, qiymatini, uskunalarni sotib olishda esa - zarur xom ashyo bilan ta'minlash to'g'risidagi ma'lumotlarni;

v) kreditlanayotgan tadbirning texnikaviy-iqtisodiy asoslarini, uning valyuta bilan o'zini-o'zi qoplashini;

g) butun qurilish, uskunalarni sozlash va ishlab chiqarish quvvatlarini o'zlashtirish davri mobaynida ishlarning texnikaviy loyihasi yoki jamlanma rasmini;

d) kreditdan foydalanish va uni to'lash muddatining hisobini.

Nizomga muvofiq, xorijiy valyutada kreditlarni to'lash tartibi belgilab chiqilgan. Kredit bo'yicha qarzni to'lash qarz oluvchining topshirig'iga (arizasiga) ko'ra, uning talab qilib olinadigan depozit hisobvarag'idan xorijiy valyutada amalga oshiriladi. Kredit bo'yicha qarzni to'lashda birinchi navbatda kreditdan foydalanganlik uchun foizlar summasi undiriladi. Amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda qarz so'mdagi mablag'larni ichki valyuta bozorida erkin almashtiriladigan valyutaga almashtirish orqali to'lanishiga yo'l qo'yiladi.

Nizomda xorijiy valyutadagi kreditlardan foydalanish va ularning to'lanishini nazorat qilishga ham alohida to'xtalib o'tilgan. Ya'ni, unda aytilishicha, vakolatli banklar qarz oluvchilar bank xorijiy valyutada bergan kredit hisobiga sotib olgan uskunalarni belgilangan muddatda foydalanishga topshirishga rioya etishlarini va undan samarali foydalanishni joylarda tekshiruvlar o'tkazish yo'li bilan ham nazorat qiladi.

Kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaydigan qarz oluvchilarga nisbatan vakolatli banklar quyidagi huquqlarga ega bo'ladilar:

- kredit berishni vaqtincha yoki to'liq to'xtatib qo'yish;
- berilgan kredit bo'yicha butun qarz summasini muddatidan ilgari undirish;
- kredit bo'yicha foiz stavkasini oshirish (uskunalarni o'z vaqtida montaj qilmaganda va ishga tushirmaganda).

Qarz oluvchi kredit shartnomasining shartlarini muntazam ravishda bajarmaganda vakolatli bank o'z shartlariga ko'ra, qarz oluvchidan ilgari unga berilgan xorijiy valyutadagi barcha kreditlarni muddatidan ilgari to'lashni talab qilishi mumkin.

Mamlakatimiz Prezidentining joriy yil 6-maydagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi mazkur Qarori bank tizimining moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini yanada oshirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning investitsiyaviy faolligini rag‘batlantirish, shuningdek umum qabul qilingan xalqaro me‘yor va standartlarga muvofiq bank faoliyatini tashkil etishni yanada yuqori darajaga chiqishini ta‘minlash maqsadida qabul qilindi. Qarorda tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash, omonat va depozitlarning yangi jozibador turlarini joriy qilish yo‘li bilan aholi va xo‘jalik sub’ektlarining bo‘sh pul mablag‘larini bank aylanmasiga keng ko‘lamda jalb etish chora-tadbirlarini amalga oshirish, etakchi xorijiy banklar va moliya institutlarida boshqaruvni tashkil etish tizimini chuqur o‘rganish asosida tijorat banklarida korporativ boshqaruv usullari, shu jumladan xatarlarni boshqarish va ichki nazoratni yaxshilash usullarini takomillashtirish, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etgan holda ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari ko‘lamini kengaytirish va sifatini oshirish, shuningdek bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini kengaytirish bo‘yicha vazifalar belgilab olindi. Bundan tashqari, olis va ishchi kuchi ortiqcha bo‘lgan shahar va tumanlardagi tadbirkorlarning imtiyozli kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ko‘zda tutilgan.

Mamlakatimiz Prezidentining «Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2009-yil 28 iyuldagi Qarori bilan tijorat banklariga kredit portfeli tarkibidagi uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashtirish ulushiga qarab tabaqalashtirilgan stavkalar bo‘yicha foyda solig‘ini to‘lash yuzasidan berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati 2020-yilning 1-yanvariga qadar uzaytirilgani mamlakatimiz banklarining barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlarni hozirlamoqda.

Bunda, tijorat banklarining foyda solig'i stavkasi kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab tabaqalashtiriladi.

1.1-jadval

Investitsiya kreditlarining jami kreditdagi ulushiga qarab foyda solig'i bo'yicha belgilangan imtiyoz¹⁸

Kredit portfelida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushi	Foyda solig'i bo'yicha imtiyoz
35-40% gacha	20%
40-50% gacha	25%
50% yuqori	30%

Soliq imtiyozlarining to'g'ri qo'llanishi ustidan nazorat davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu qonun va qarorlarlar respublikada xalqaro talablarga javob beradigan investitsiya iqlimini yaratishda, banklarning investitsion kreditlash salohiyatini oshirishda va shuningdek, banklarning resurs bazasini mustahkamlashda muhim hujjat bo'lib kelmoqda.

I bob bo'yicha xulosa

1. Investitsiya – bu iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritilgan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar. Investitsiya faoliyati esa – investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlar majmui.

2. Tijorat banklarining investitsion jarayonlardagi ishtirokini faollashtirish zarurati, bank tizimi va milliy iqtisodiyotni uzviylikda barqaror rivojlantirish maqsadlaridan kelib chiqadi. Bir tomondan, tijorat banklari ularning faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarga ega bo'lgan barqaror iqtisodiy muhitga ehtiyoj sezsa, boshqa tomondan esa, iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi ko'p jihatdan bank tizimining ishonchlilik darajasiga hamda uning samarali faoliyat yuritishiga bog'liq bo'ladi.

¹⁸2009 yil 19 oktabr.da 2021-son bilan Adliya Vazirligida ro'yxatga olingan "Tijorat banklari tomonidan kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab foyda solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida..

3. Tijorat banklari investitsiya faoliyati deganda, uzoq muddatli kreditlashdan farqli ravishda bankning foizsiz qo'yilmalar qo'yishi tushuniladi, ya'ni bunda bank ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadi va foydadan ulush oladi. Bank tomonidan investitsiyalashda o'zining vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini uzoq muddatli investitsiyalarga sarflashga intilayotgan bankning o'zi tashabbuskor bo'lib maydonga chiqadi.


4. Mamlakatda investitsiya faoliyatini takomillashtirishda tijorat banklarini ishtirokini iqtisodiyot tarmoqlari va hududlari rivojini ta'minlash, ulardagi asosiy fondlarni yangilash, kengaytirish va zamonaviylashtirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirish, texnik va texnologik yangilash, raqobatbardosh maxsulotlar ishlab chiqarilishini ta'minlashdagi hissasi bilan baholash mumkin.

II-BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI BANK KREDITI HISOBIGA MOLIYALASHTIRISH TAHLILI

2.1. Tijorat banklarining ustav kapitalini oshirish va depozit bazasini mustahkamlash yo‘nalishlari tahlili

Tijorat banklarining investitsion kreditlar berish salohiyati, birinchi navbatda, ularning resurs bazasi yetarliligi bilan belgilanadi. O‘z navbatida, mamlakatimiz tijorat banklarining resurs bazasi ikki yirik qismdan, ya’ni depozit va kapital bazasidan iborat.

Banklarning kapital hajmining oshishi va depozit bazasining mustahkamlanishi nafaqat investitsion kredit berish imkoniyatining kengayishiga, balkim uning iqtisodiyotdagi mavqeining oshishiga sababchi bo‘ladi.




2.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi banklarining yalpi kapitali, (yil boshiga, trln. so‘m)¹⁹

So‘nggi-yillarda respublika banklarining yalpi kapitali faqat o‘shish tendensiyasiga ega bo‘ldi. Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki so‘nggi olti-yil davomida banklarning yalpi kapitali 2,3 baravardan ko‘proqqa oshgan, bu esa

¹⁹ www.cbu.uz //O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayting ma’lumotlari asosida tuzildi.

respublika banklari faoliyatining barqarorligini va olib borilgan oqilona siyosat natijasida banklar kapitallashuv darajasining yildan-yilga o'sib borganligini bildiradi.

Tijorat banklari resurs bazasining muhim tarkibiy qismi bo'lgan kapital bazasi, O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari kapitalini shakllantirish bo'yicha Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan andozaga asoslanadi. Mazkur andozaga ko'ra, tijorat banklari kapitali asosiy va qo'shimcha kapitaldan iborat bo'lib, bunda asosiy kapital barqaror moliyalashtirish manbalaridan tashkil topadi. Shu sababli, tijorat banklarining asosiy kapitali investitsion kreditlarni moliyalashtirishning muhim hamda barqaror manbai hisoblanadi.



2.2-rasm. Xalqaro Bazel andozasi talablariga ko'ra, tijorat banklarining asosiy kapitalining resurs manbalari tarkibi²⁰

²⁰ N.X.Jumayev. Investitsiya faoliyatini rivojlantirishda tijorat banklarinig ishtirokini kuchaytirish maslalari. "Iqtisodiyot va invovatsiyalar" ilmiy electron jurnali. 2011-yil, sentabr. №1. 4b

Ustav kapitalining to‘langan qismini olaylik. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, tijorat banklarining aksionerlari moliyaviy yil davomida o‘zlarining ustav kapitalidagi ulushlarini olishga haqli emaslar. Demak, aksiyadorlarning bank ustav kapitalidagi mablag‘lari tijorat banklari uchun barqaror resurs hisoblanadi. Asosiy kapitalning ikkinchi bir elementi bo‘lgan taqsimlanmagan foyda xususida ham shunday deyish mumkin.

Taqsimlanmagan foyda sof foydaning dividendlar to‘langandan keyin qolgan ozod qoldig‘i bo‘lib, unga nisbatan bank kreditorlari tomonidan hech qanday e‘tiroz mavjud emas. Bir so‘z bilan aytganda, barqarorlik darajasi yuqori bo‘lgan resurs hisoblanadi.


Tijorat banklari tomonidan chiqariladigan nokumulyativ imtiyozli aksiyalarning barqarorlik darajasi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- tijorat banklarining nokumulyativ imtiyozli aksiyalari uni sotib olgan sub’ektlarning xohishiga ko‘ra, bankka qaytarilishi mumkin emas. Bu aksiyalarni qaytarib sotib olish masalasini banklarning o‘zi hal qiladi;

- tijorat banklarining nokumulyativ imtiyozli aksiyalarida aniq qoplash muddati mavjud bo‘lmaydi, demak, ular muddatsiz bo‘ladi. Shunisi e‘tiborliki, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarori bilan tijorat banklarining nokumulyativ imtiyozli aksiyalariga dividendlar to‘lanmasligi mumkin. To‘lanmagan dividendlar keying yillarda to‘lab berilmaydi. Shu sababdan ham bu asosiy kapitallarni barqaror kapitallar sirasiga bermalol kiritamiz.

Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi tavsiyaga ko‘ra, regulyativ kapital yetarliligiga talab 8 foizni, 2019-yil 1 yanvardan boshlab maxsus zaxira kapitaliga minimal talabni hisobga olgan holda 10,5 foiz belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining 2014-yil yakuni bo‘yicha bank tizimida kapitalning yetarlilik darajasi 23,8 foizni tashkil etdi. Bu esa, bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi tomonidan belgilangan xalqaro me‘yordan deyarli 3 barobar yuqoridir (2.3-rasm).



2.3-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kapitalning yetarlilik darajasi, (foizda)²¹

Bu ko‘rsatkich xalqaro talablarga nisbatan 3 baravar ko‘p bo‘lsada, lekin respublikamiz tijorat banklarining asosiy kapitalini shakllantirishda uning barqarorlik darajasini oshirish muammosi ham mavjud. Mazkur muammoning mohiyati shundaki, mamlakatimiz tijorat banklarining asosiy kapitali tarkibiga barqaror moliyalashtirish manbai bo‘lmagan resurslar ham kiritilgan. Ana shunday resurslardan biri devalvatsiya zaxirasi hisoblanadi. 2009-yil 1 yanvar holatiga, devalvatsiya zaxirasining mamlakatimiz tijorat banklari umumiy kapitali hajmidagi salmog‘i 64,7 foizni tashkil etdi. Devalvatsiya zaxirasi tijorat banklarining ustav kapitaliga qo‘yilgan xorijiy valyutalarni aktiv operatsiyalarda ishlatilganda qayta baholash natijasida yuzaga keladigan resurs hisoblanadi.

Xalqaro bank amaliyotida, shu jumladan, respublikamizning bank amaliyotida tijorat banklarining ustav kapitaliga qo‘yilgan xorijiy valyutalardagi mablag‘lar valyutalarning almashuv kurslari o‘zgarishi munosabati bilan qayta baholanmaydi. Lekin, ular tijorat bankining aktiv operatsiyalarida ishlatiladi va bu

²¹ www.cbu.uz //O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayting ma’lumotlari asosida tuzildi.

jarayonda qayta baholanadi. Natijada, tijorat banki balansining aktiv va passiv qismi o'rtasida qayta baholash summasiga farq yuzaga keladi. Bu farq summasi qayta baholash zaxirasi deyiladi.

Demak, devalvatsiya zaxirasining miqdori so'mning almashuv kursi o'zgarishiga bog'liq, shu sababli, bu zaxira nobarqaror moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklari asosiy kapitalining tarkibidan devalvatsiya zaxirasini chiqarib tashlash asosida uning barqaror me'yoriy darajasini ta'minlash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12 iyulda qabul qilingan "Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida bank-moliya tizimida olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.


Qayd etilganidek, banklarning kapitaliga aholi, tadbirkorlik sub'ektlari, investorlarning bo'sh pul mablag'larini jalb qilish uchun qo'shimcha aksiyalar chiqarish va ularni fond bozorida faol joylashtirish hisobiga banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, tijorat banklarining o'z kapitali hisobidan yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil qilish hamda mavjud korxonalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashdagi investitsiya jarayonlarida keng ishtirok etish, shu asosda raqobatbardosh, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish nazarda tutilgan.

Xususan, so'ngi-yillarda qo'shimcha aksiyalar va qarz qimmatli qog'ozlarini chiqarish va joylashtirish hamda boshqa vositalardan samarali foydalanish orqali tijorat banklarining umumiy kapitali hajmi sezilarli darajada o'sib bormoqda.

2014-yil davomida tijorat banklari tomonidan bank ustav kapitalini oshirish maqsadida 525,2 mlrd. so'mlik, shu jumladan:

- «O'zsanoatqurilishbank»ning – 222,6 mlrd. so'mlik;
- «Agrobank»ning – 30,0 mlrd. so'mlik;

- «Asaka» bankning – 68,8 mlrd. soʻmlik;
- «Ipoteka-bank»ning – 43,2 mlrd. soʻmlik;
- «Orient Finans» bankning – 19,5 mlrd. soʻmlik;
- «Asia Alliance Bank»ning – 23,7 mlrd. soʻmlik.
- «Qishloq qurilish bank»ning 33,3 mlrd. soʻmlik aksiyalari investorlar orasida joylashtirilib, shundan 209,2 mlrd. soʻmlik aksiyalar nodavlat sektor sub'ektlariga sotildi (2.4-rasm).




2.4-rasm. 2014-yilda tijorat banklari tomonidan bank ustav kapitalini oshirish maqsadida chiqarilgan aksiyalar miqdori, mlrd. soʻmda²²

Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 23 maydagi «Oʻzbekiston sanoat-qurilish bankining ustav kapitalini oshirish yuzasidan qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi PQ-2179-sonli Qaroriga muvofiq «Oʻzsanoatqurilishbank» ustav kapitali 2015-yilning 1 yanvar holatiga 541,2 mlrd. soʻmga (223,4 mln. AQSH dollari ekvivalentida) yetkazildi.

²² www.cbu.uz //Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayting maʼlumotlari asosida tuzildi.

Quyida oxirgi uch yil davomida O‘zbekiston Respublikasidagi barcha tijorat banklarining ustav kapitalini oshirish maqsadida chiqarilgan qo‘shimcha aksiyalarining investorlar orasida joylashtirilish dinamikasini ko‘rishimiz mumkin (2.5-rasm).



2.5-rasm. Tijorat banklari tomonidan bank ustav kapitalini oshirish maqsadida chiqarilgan qo‘shimcha aksiyalar miqdori, mlrd.so‘mda²³

Bugungi kunda 18 ta tijorat banklarining aksiyalari «Toshkent» fond birjasi listingiga kiritilgan bo‘lib, ushbu banklarning qimmatli qog‘ozlari muntazam ravishda birjada kotirovka qilinib, ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilib borilmoqda.

Bundan tashqari, banklarning resurs bazasini mustahkamlash, aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish maqsadida tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli obligatsiyalar va depozit sertifikatlarining chiqarilishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

2.1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, banklarning resurs bazasini mustahkamlashda qarz qimmatli qog‘ozlarinig salmog‘i o‘sib bormoqda.

²³ www.cbu.uz //O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy saytining ma‘lumotlari asosida tuzildi.


2012-yilga nisbatan 2014-yilda qarz qimmatli qog'ozlarinig hajmi 41, foizga oshgan.

2.1-jadval

Tijorat banklari tomonidan emissiya qilingan qarz qimmatli qog'ozlar (mlrd.so'mda)²⁴

Qimmatli qog'ozlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2013 yilga nisbatan 2015 yildagi o'sish darajasi
Depozit sertifikatlari	445,6	592,0	689,7	54,8
Uzoq muddatli obligatsiyalar	258,7	330,0	310,3	19,9
Jami:	704,3	922,0	1000,0	41,9

Tijorat banklari resurslar bazasining ikkinchi qismi bo'lgan depozit mablag'larining miqdori ham so'nggi 5 yilda o'sish tendensiyasiga ega.



2.6-rasm. Banklardagi jami depozitlar (trln. so'mda)²⁵

Lekin, shuni ta'kidlash joizki, respublikamiz tijorat banklarida depozit mablag'lari umumiy o'sish tendensiyasiga ega bo'lsada, ularning bazasini mustahkamlash muammosi mavjud bo'lib, bu holat, avvalo, transaksion

²⁴ www.cbu.uz //O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy saytining ma'lumotlari asosida tuzildi.

²⁵ www.cbu.uz //O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy saytining ma'lumotlari asosida tuzildi.

depozitlarning banklarning depozit bazasi hajmidagi salmog'ining yuqori ekanligida namoyon bo'ladi. Masalan, 2013-yilning 1 yanvar holatiga, talab qilib olinadigan depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i Agrobankda 56,4 foizni, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankida 79,7 foizni, Sanoatqurilishbankida 90,6 foizni tashkil etdi. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining ekspertlari tomonidan tavsiya etilgan va xalqaro amaliyotda depozitlarning yetarliligini baholashda qo'llaniladigan metodikaga ko'ra, tijorat bankinig depozit bazasi yetarli bo'lishi uchun talab qilib olinadigan depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i 30 foizdan oshib ketmasligi lozim.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash tadbirlarini amalga oshirish ularning uzoq muddatli depozitlari miqdorini, kapitalizatsiya darajasini oshiradi va shuning asosida banklarning investitsion faoliyatni moliyalashtirish maqsadida beriladigan investitsion kreditlari hajmini keskin oshirish imkonini beradi.

2.2. Tijorat banklari tomonidan loyihalarni investitsion kreditlash amaliyoti tahlili


Iqtisodiyotdagi investitsion jarayonlarni yanada jadallashtirish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilashni ta'minlashda bank xizmatlaridan foydalanish ko'lamlarini kengaytirish, investitsion kreditlashni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda tarkibiy va sifat o'zgarishlar davom etayotgan bugungi kunda banklar resurs kapitalining ko'payishi, bank xizmatlari doirasining yanada jadal kengayishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish evaziga raqobatning kuchayishi, jahon moliya-bank tuzilmalari bilan aloqalarning rivojlanishi va bank-moliya innovatsiyalari segmentida loyihalarning ishlab chiqilishi O'zbekiston zamonaviy bank tizimining eng muhim tavsifi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shuni ta’kidlash muhimki, banklarning kapitallashuv darajasini va bank likvidililigining oshirilishi ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun mustahkam zamin yaratadi. Shu bilan birga, keng ko’lamli islohotlarni amalga oshirishda banklarning investitsiya kreditlari orqali ishtirokini ta’minlashning barqaror resurs bazasini shakllantiradi.

Banklarning umumiy kapitali va depozit bazalarining yuqori sur’atlarda o’sishi, o’z navbatida, ularning iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo’llab-quvvatlashdagi ishtirokini faollashtirishga, bank aktivlari va kredit qo’yilmalari hajmining ko’payishiga xizmat qiladi.


Xususan, yuqoridagi tahlil ma’lumotlari orqali tijorat banklarining jami kapitali va depozitlarining so’nggi yillarda faqat o’sish tendensiyasida ekanligini ko’rishimiz mumkin. Shunga mutanosib ravishda, tijorat banklarining jami aktivlari hajmi ham 2014-yilda 2013-yilga nisbatan 28,2 foizga oshib, 2015-yilning 1 yanvar holatiga ko’ra, 56,2 trln. so’mga yetdi (2.7-rasm).



2.7-rasm. Tijorat banklarining jami aktivlari o’zgarishi dinamikasi, mlrd. so’mda (1 yanvar holatiga)²⁶

²⁶ www.cbu.uz // O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayting ma’lumotlari asosida tuzildi.

Shu jumladan, 2014-yilda tijorat banklarining kredit qo'yilmalari umumiy hajmi 2013-yilga nisbatan 31,2 foizga o'sib, 2015-yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 34,8 trln. so'mni tashkil etdi.




2.8-rasm. Tijorat banklarining kredit qo'yilmalari dinamikasi, mlrd. so'mda (1 yanvar holatiga)²⁷

Respublika bank tizimida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28 noyabrdagi «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida»gi PF-4058-sonli Farmoni boshqa farmon va qarorlariga muvofiq, iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hajmlarini yanada oshirish, shu jumladan, yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo'yicha investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonlarida banklarning ishtirokini yanada kengaytirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Iqtisodiyotning real sektorini kreditlash hajmi yuqori sur'atda davom ettirilishi natijasida, 2014-yil mobaynida iqtisodiyotning real sektorini kreditlash

²⁷ www.cbu.uz //O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayting ma'lumotlari asosida tuzildi.

umumiy hajmi 2013-yilga nisbatan 31,2 foiz ko‘payib, 2015-yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, 34,8 trln. so‘mdan ortdi.




2.9-rasm. Iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirilgan kreditlar miqdori, 2014-2015-yillarning 1 yanvar holatiga, trln. so‘mda²⁸

2009-2014-yillardagi o‘zgarish sur‘atlari ko‘rib chiqilsa, iqtisodiyotning real sektorini kreditlashning-yillik o‘sinh sur‘ati o‘rtacha 30 foizni, iqtisodiyotning alohida yo‘nalishlari va sohalarida undan ham ko‘proqni tashkil qilganligini kuzatish mumkin.

Eng asosiysi, respublikamiz tijorat banklarining kredit portfeli va umumiy aktivlarining yuqori o‘sinh sur‘atlari asosan ichki zaxiralarni va manbalarni yanada ko‘proq jalb qilish evaziga amalga oshirilmoqda. Mazkur siyosatning amalga oshirilishi natijasida ichki manbalar hisobidan ajratilgan kreditlarning tijorat banklari umumiy kredit portfelidagi ulushi oxirgi 5 yil davomida 4,2 barobarga oshib, hozirgi kunda 86 foizni tashkil etmoqda.

2014-yil mobaynida korxonalarni modernizatsiya qilish, texnologik va texnik jihatdan qayta jihozlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan jami 8,5 trln.so‘m yoki 2013-yilga nisbatan 1,2 barobar ko‘p investitsion kreditlar ajratildi.

²⁸ Bank axborotnomasi. 2015 yil 16-aprel. № 16 (987)



2.10-rasm. Investitsion kreditlar dinamikasi, mlrd.so'mda²⁹

Bunda banklarning investitsion kreditlari ustuvor ravishda «2011-2015-yillarda sanoatni rivojlantirish», «2014-yilgi Investitsiya dasturi» hamda tarmoqlarni modernizatsiya qilish, mahalliyashtirish va hududlarni rivojlantirish Davlat dasturlariga kiritilgan loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarish texnologiyalarini sotib olishga yo'naltirilmoqda.

Jumladan, 2014-yil davomida tijorat banklari tomonidan:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26 yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1047-sonli Qarorini ijro etish doirasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarga 1,6 trln. so'm yoki 2013-yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28 yanvardagi «Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1050-sonli Qaroriga muvofiq, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab

²⁹ www.cbu.uz //O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayting ma'lumotlari asosida tuzildi.

chiqaruvchi korxonalarga 1,7 trln. so‘m miqdorida yoki 2013-yilga nisbatan 1,3 barobar ko‘p kreditlar ajratildi.

Quyidagi rasmda, tijorat banklarining investitsion kreditlarining umumiy kredit hajmidagi ulushini ko‘rishimiz mumkin.

2.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar va investitsion kreditlar, mlrd.so‘mda³⁰

Ko‘rsatkichlar	2011-yil	2012-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil	2015-yilda 2011-yilga nisbatan o‘shish darajasi (marta)
Bank kreditlari (mlrd. so‘mda)	8558,2	11539,0	15652	20392	26530	3,1
Bankning investitsion kreditlari (mlrd. so‘mda)	6705	3252	4444	5760	7200	1,1
Bank krediti tarkibida investitsion kreditlarining ulushi (foizda)	78,3	28,2	28,3	8,2	27,1	-2,9

Berilgan rasmdan tijorat banklarining 2011-2015-yillar oralig‘idagi banklar tomonidan berilgan kreditlarini 3,1 barobar, bankning investitsion kreditlari esa 1,1 barobarga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Bank krediti tarkibida investitsion kreditlarining ulushi esa 2010-yilda 78,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, so‘nggi to‘rt yilda 28-27 foiz atrofida bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu jadval ma’lumotlaridan so‘ngi 4 yil davomida bank kreditlari tarkibida investitsion kreditlar ulushi muqobil turganini guvohi bo‘lamiz, jami berilgan kreditlarning qariyb 1/3 qismi investitsion kreditlar ulushiga to‘g‘ri kelishi iqtisodiyot tarmoqlarida yangi ishlab chiqarish korxonalarining bunyod etilayotgani, eskilari esa texnik qayta jihozlanayotganidan dalolatdir. Shu bilan birga, investitsion kredit qo‘yilmalarini bir nechta tijorat banklari misolida ko‘radigan bo‘lsak, «O‘zsanoatqurilishbank» aksiyadorlik-tijorat banki iqtisodiyotning real tarmoqlariga investitsiyalarni ko‘proq jalb qilgan holda sanoatni modernizatsiya qilishda faol ishtirok etib, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirishga munosib hissa qo‘shmoqda.

³⁰ www.cbu.uz //O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayting ma’lumotlari asosida tuzildi.

Bank bugungi kunda yirik sanoat ishlab chiqarishdan tortib, kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda aniq va samarali kredit siyosatini olib bormoqda. Joriy yilning 9 oyi davomida mazkur muassasaning kredit portfeli yil boshiga nisbatan 1,0 trln. so'mga yoki 20 foizga o'sib, 5 trln. 950 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda aynan investitsion loyihalarga yo'naltirilgan kreditlar jami kredit portfelining 78 foizini tashkil qilib, hisobot davrida uning qoldig'i 4 trln. 641 mlrd. so'mga etdi.

Ta'kidlash joiz, joriy-yilda «O'zsanoatqurilishbank» davlat Investitsiya dasturiga muvofiq, kichik biznes sohasini moliyalashtirish uchun Germaniyaning «Commerzbank AG», Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi va Jahon bankining kredit liniyalari bo'yicha mablag'larni o'zlashtirish ishlarini amalga oshirmoqda. Muassasa shu yilning 1-oktyabr holatiga ko'ra, iqtisodiyotga jami 957 mlrd. so'mlik investitsion kreditlar ajratdi, chet el banklarining kredit liniyalari orqali esa, 173 mlrd. so'm miqdoridagi mablag'larni jalb qildi.

Shuningdek, investitsion kreditlarning 590 mlrd. so'mi O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, 194,4 mlrd. so'mi esa, bankning o'z mablag'lari va boshqa manbalar hisobiga shakllantirildi. Mazkur mablag'larni tarmoqlar bo'yicha taqsimlaydigan bo'lsak, uning 688,3 mlrd. so'mi neft-gaz, 4 mlrd. so'mi kimyo hamda 50,2 mlrd. so'mi energetika tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirilganligini ko'rishimiz mumkin.

“Asaka” davlat aksionerlik tijorat banki tomonidan ham iqtisodiyotning real sektori korxonalarining investitsion loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Joriy yilning 1 aprel holatiga ko'ra, bankning kredit qo'yilmalari hajmi 2,8 trln. so'mni tashkil etib, ulardan 1,9 trln.so'mdan ziyodi ya'ni 87 foizi investitsion kreditlardir.

2.3. “Bo‘z Gazmol” investitsion loyihasining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi tahlili

Hozirgi kunda ko'pgina tijorat banklari investitsion kreditlash jarayonini o'zlarining ichki kredit siyosatidan kelib chiqqan holda mustaqil amalga

oshiradilar.

Respublikamizning yirik investitsion banki hisoblanmish DAT “Asaka bank” ham loyihalarni moliyalashtirishda yetakchilik qilib kelmoqda. Asaka bank tomonidan moliyalashtirilgan “Bo‘z Gazmol” investitsion loyihasining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi tahlilini ko‘rib chiqamiz.

“Gazmol Servis” xususiy korxonasi tomonidan to‘quv dastgohlari sotib olish orqali ishlab chiqarishni kengaytirish va korxona daromadini oshirish maqsadida uzoq muddatli bank krediti olish ko‘zda tutilgan. “Bo‘z Gazmol” loyihasini moliyalashtirish maqsadida 800035000.00 so‘m miqdorida kredit ajratishni so‘rab DAT Asaka bankka ariza bilan murojaat qilgan. Kredit olish uchun “Gazmol Servis” xususiy korxonasi tomonidan texnik-iqtisodiy asosnoma, ta‘sis hujjatlari, moliyaviy hisobotlar, kredit ta‘minoti (olinadigan kreditning 125 foiz miqddoridan kam bo‘lmasligi kerak) kabi hujjatlar taqdim etildi.

Loyihaning maqsadi ishlab chiqarishni kengaytirish uchun kredit mablag‘lariga to‘quv dastgohlarini sotib olish hamda mahsulot rentabelligini oshirib, ishlab chiqarilgan mahsulotni respublika ichki bozorlarida o‘z iste‘molchilariga yetkazib berish.

DAT “Asaka bank” Boshqaruvi “Gazmol Servis” xususiy firmasi tomonidan gazlama ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish maqsadida Rossiyada ishlab chiqarilgan “CTB-4-330” rusumli to‘quv dastgohlari sotib olishga 800035000.00 so‘m miqdorida 3 yil muddatda, 16 foiz yillik ustama to‘lov sharti bilan kredit ajratishga qaror qildi.

“Gazmol Servis” xususiy korxonasiga 2014-yil 27 yanvardagi 36-sonli kredit shartnomasiga asosan “Gazmol Servis” loyihasini moliyalashtirishga 800035000.00 so‘m miqdorida “IMIDJ TEKSTIL” MCHJ va “TEXTILES SPEKTRUM KOLORS” MCHJ qo‘shma korxonasi bilan 2014-yil 17 fevralda tuzilgan 28-sonli shartnomasiga asosan “CTB-4-330” rusumli to‘quv dastgohlari sotib olishga kredit ajratilgan.

Bank tomonidan ajratilgan kredit mablag‘larining garov ta‘minoti sifatida “SILING TEXTILE” xususiy korxonasiga tegishli bo‘lgan Toshkent shahar,

Chilonzor tumani, Registon ko'chasi-18 uyda joylashgan ma'muriy binoning uchichi, to'rtinchi qavatlarini umumiy maydoni 1994 kv.metr bo'lgan bino taqdim etilgan.

Kredit hisobiga quyidagi uskunalar sotib olingan:

2.3-jadval

Kredit hisobiga sotib olingan to'quv dastgohlari³¹

№	Uskuna nomi va turi	Soni	Narxi (ming so'mda)	Jami narxi (ming so'mda)
1	"CTB-4-330" rusumli to'quv dastgohlari	53 dona	15095,0	800035,00

To'quv dastgohining ishlab chiqarish quvvati soatiga 230 sm kenglikdagi 4-5 metr bo'lgan hom bo'z matosiga teng bo'lib, o'rtacha oylik hisobda esa

$$4 \text{ mert} \times 53 \text{ dona} \times 8 \text{ soat} \times 26 \text{ ish kuni} = 44096,0 \text{ metr}$$

bo'lgan hom bo'z matosini tashkil etadi. Shu o'rinda, shlab chiqarish uskunalarini doimiy to'la quvvat bilan ishlashiga ta'sir etuvchi ko'zda tutilmagan sabablarni inobatga olgan holda o'rtacha ishlab chiqariladigan mahsulot 3500,0 metrni tashkil etishi rejalashtirilgan. Ishlab chiqariladigan matoning tannarxi bugungi amaldagi narxlardan kelib chiqqan holda 1 metri 2100 so'm hisoblanib, 40 foiz ustama haqi qo'yilgan holda mahsulotning sotuv narxi o'rtacha 2940 som bo'ladi.

Loyihaning umumiy qiymati – 1496540300,00 so'm bo'lib, shundan, 800035000.00 so'mi bank kreditidir (2.4- jadval).

2.4-jadval

"Bo'z Gazmol" investitsion loyihasining qiymati va moliyalashtirish manbasi³²

Moliyalashtirish manbasi	Milliy valyuta (so'm)	Tarkibi (foiz)
O'z kapitali:	696505300,00	46,54 foiz
- Uzoq muddatli aktivlar	556783300,00	79,94 foiz
- Joriy aktivlar	1397222000.00	20,06 foiz
Bank krediti:	800035000.00	53,46 foiz
- To'quv dastgohlari	800035000.00	100,0 foiz
Jami:	1496540300,00	100,0 foiz

³¹ "Bo'z Gazmol" investitsion loyihasining biznes reja ma'lumotlari asosida hisoblandi

³² "Bo'z 4Gazmol" investitsion loyihasining biznes reja ma'lumotlari asosida hisoblandi.

Korxona mahsulot ishab chiqarish miqdorini oshirishi natijasida esa korxonaga har oyda 3500 metr x 2940 so'm=102900,0 ming so'm daromad keltiradi. Korxonaning rejalashtirayotgan 1 yillik ishlab chiqarish fondi 600000,0 p.m hom bo'z mahsulotini tashkil etadi.

2.5-jadval

Kreditni to'lash grafigi³³

№	Kredit qoldig'i	Hisoblangan foiz	Asosiy qarz	Har oylik to'lov
1	800035000,00	10667133,33		10667133
2	800035000,00	10667133,33		10667133
3	800035000,00	10667133,33		10667133
4	800035000,00	10667133,33	24243484,85	34910618,18
5	775791515,15	10343886,87	24243484,85	34587371,72
6	751548030,30	10020640,4	24243484,85	34264125,25
7	727304545,45	9697393,939	24243484,85	33940878,79
8	703061060,61	9374147,475	24243484,85	33617632,32
9	678817575,76	9050901,01	24243484,85	33294385,86
10	654574090,91	8727654,545	24243484,85	32971139,39
11	630330606,06	8404408,081	24243484,85	32647892,93
12	606087121,21	8081161,616	24243484,85	32324646,46
13	581843636,36	7757915,152	24243484,85	32001400,00
14	557600151,52	7434668,687	24243484,85	31678153,54
15	533356666,67	7111422,222	24243484,85	31354907,07
16	509113181,82	6788175,758	24243484,85	31031660,61
17	484869696,97	6464929,293	24243484,85	30708414,14
18	460626212,12	6141682,828	24243484,85	30385167,68
19	436382727,27	5818436,364	24243484,85	30061921,21
20	412139242,42	5495189,899	24243484,85	29738674,75
21	387895757,58	5171943,434	24243484,85	29415428,28
22	363652272,73	4848696,97	24243484,85	29092181,82
23	339408787,88	4525450,505	24243484,85	28768935,35
24	315165303,03	4202204,04	24243484,85	28445688,89
25	290921818,18	3878957,576	24243484,85	28122442,42
26	266678333,33	3555711,111	24243484,85	27799195,96
27	242434848,48	3232464,646	24243484,85	27475949,49
28	218191363,64	2909218,182	24243484,85	27152703,03
29	193947878,79	2585971,717	24243484,85	26829456,57
30	169704393,94	2262725,253	24243484,85	26506210,10
31	145460909,09	1939478,788	24243484,85	26182963,64
21	121217424,24	1616232,323	24243484,85	25859717,17
33	96973939,39	1292985,859	24243484,85	25536470,71
34	72730454,55	969739,3939	24243484,85	25213224,24
35	48486969,70	646492,9293	24243484,85	24889977,78
36	24243484,85	323246,4646	24243484,85	24566731,31
Jami;	-	2133426666,72	800035000,00	1013377666,72

³³ “Bo'z G5azmol” investitsion loyihasining biznes reja ma'lumotlari asosida hisoblandi.

Kreditdan foydalanish muddati 36 oyni tashkil etib, yillik foiz stavkasi 16 foiz. Imtiyozli davr 3 oy (2.5-jadval).

“Bo‘z Gazmol” investitsion loyihasining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligiga quyidagi ko‘rsatkichlar orqali baho berishimiz mumkin bo‘ladi:

- sof joriy qiymat;
- foydaning ichki me'yori;
- investitsiyalarning rentabelligi;
- diskontlashning qoplash muddati.

Investitsiya loyihasining sof joriy qiymatini hisoblash uchun dastavval sof pul oqimlarini hisoblab olishimiz lozim.

1. Sof joriy qiymat

2.6-jadval
“Bo‘z Gazmol” investitsiya loyihasining sof joriy qiymat (NPV) hisob-kitobi³⁴

Yillar	Investitsiyalar(-), sof pul oqimi(+)	Joriy qiymat koeffitsienti d=16%	Joriy qiymat	Yig‘ilgan joriy qiymat
0	-800035,00	1,0000	-800035,00	-800035,00
1	511886,71	0,8620	441246,34	-358788,66
2	580915,92	0,7432	431736,71	72948,05
3	604666,80	0,6407	387410,02	460358,07

$$NPV = \frac{CF_1}{(1+d)^1} + \frac{CF_2}{(1+d)^2} + \dots + \frac{CF_t}{(1+d)^t} - I_0 = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+d)^t} - I_0$$

$$NPV = \frac{511886,71}{(1+0,16)^1} + \frac{580915,92}{(1+0,16)^2} + \frac{604666,80}{(1+0,16)^3} - 800035,00 = 460358,07$$

Hisob-kitob natijalari orqali “Bo‘z Gazmol” investitsion loyihasining sof joriy qiymati 460358,07 so‘mga teng ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

1. Investitsiyalarning rentabelligi (PI)

$$PI = \left[\sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+d)^t} \right] / I_0 = 1260393,07 / 800035,00 = 1,58$$

³⁴ “Bo‘z Gazmol” investitsion loyihasining biznes reja ma‘lumotlari asosida hisoblandi

“Bo’z Gazmol” investitsion loyihasining investitsiya rentabelligini hisoblash orqali 1 so‘m miqdoridagi pul mablag‘imiz 0,58 so‘m miqdorida o‘lishini ko‘rsatmoqda.

2. Diskontlashtirilgan qoplash muddati

2.7-jadval

“Bo’z Gazmol” investitsiya loyihasining diskontlashtirilgan qoplash muddati (DPP) hisob-kitobi³⁵

Yillar	Diskontlashtirilgan pul oqimi	Jamg‘arilgan diskontlashtirilgan pul oqimi
0	-800035,00	-800035,00
1	511886,71	-358788,66
2	580915,92	72948,05
3	604666,80	460358,07

$$DPP=1+(358788,66/580915,92)=1,6176 \text{ yil yoki } 1 \text{ yil } 225 \text{ kun.}$$

Ya’niki, “Bo’z Gazmol” investitsiya loyihasiga qilingan investitsiyalarning joriy (real) qiymati bo‘yicha to‘liq qoplanish muddati 1 yil 225 kunni tashkil etadi.

3. Foydaning ichki me'yori

Uni hisoblash formulasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$IRR = d_1 + \frac{NPV_1}{(NPV_1 - NPV_2)} \cdot (d_2 - d_1),$$

2.8-jadval

“Bo’z Gazmol” investitsiya loyihasining foyda ichki me'yori (IRR) hisob-kitobi³⁶

Yillar	Investitsiyalar (-), sof pul oqimi (+)	1-hisob-kitob		2-hisob-kitob	
		joriy qiymat koeffitsienti $d_1=16\%$	joriy qiymat	joriy qiymat koeffitsienti $d_2=47,8\%$	joriy qiymat
0	-800035,00	1,0000	-800035,00	1,0000	-800035,00
1	511886,71	0,8620	441246,34	0,6766	346342,55
2	580915,92	0,7432	431736,71	0,4578	265943,31
3	604666,80	0,6407	387410,02	0,3097	187204,84
NPV			460358,07		-544,3

$$IRR = 16 + \frac{460358,07}{(460358,07 + 544,3)} \cdot (47,8 - 16) = 47,76$$

³⁵ “Bo’z Gazmol” investitsion loyihasining biznes reja ma’lumotlari asosida hisoblandi

³⁶ “Bo’z Gazmol” investitsion loyihasining biznes reja ma’lumotlari asosida hisoblandi

Hisob-kitob natijasida $IRR=47,76$ teng ekanligini ko'ramiz. Bunda $IRR>HR$, ya'ni $47,76>16$.

“Bo'z Gazmol” investitsion loyihasining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish orqali loyihaning sof joriy qiymati 460358,07 so'mga, investitsiya rentabelli 1,58 ga, diskontlangan qoplanish muddati 1 yil 225 kunga, foydaning ichki me'yori esa 47,76 foizga teng ekanligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur loyihani tahlil qilish orqali xulosa qilar ekanmiz, “Gazmol Servis” xususiy korxonasi tomonidan taqdim etilgan g'oya samarali va hayotiydir.

II bob bo'yicha xulosa

1. Iqtisodiyotni erkinlashtirishning hozirgi sharoitida turli tarmoqlar va sohalarni modernizatsiya qilish, tarkibiy islohotlar hamda investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilashda davlatning alohida roli saqlanib qolinmoqda. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki iqtisodiyotning har bir sohasiga investitsiyalarni jalb qilish orqali, ishlab chiqarishni yanada kengaytirish hamda aholini turmush farovonligini yaxshilashga olib keladi.

2. Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda tijorat banklarining investitsion faoliyatini yanada kengaytirishga, eksport qiluvchi korxonalarni hamda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni davom ettirishga, iqtisodiyotning real sektor korxonalari tomonidan investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish maqsadida tijorat banklarining ushbu loyihalarda o'z kredit resurslari bilan faol ishtirok etishlarini ta'minlashga va pirovard natijada ularni yirik investitsiya institutlariga aylantirishga sharoit yaratadi.

3. “Ipotekabank” ATIB ham xalqaro talablarga mos zamonaviy bank boshqaruvini amaliyotga joriy etgan holda yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqda. Bank o'z resurs bazasini mustahkamlab, iqtisodiyotning real sektori sanalmish korxonalar, kichik biznes sub'yektlar hamda aholiga sifatli bank xizmatlarini taqdim etmoqda.

III-BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI BANK KREDITLARI HISOBIGA MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI

3.1 Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonida banklar ishtiroki muammolari va rivojlantirish chora tadbirlari

Har qanday sohada bolganidek investitsiyalash sohasida ham hal qilinishi kerak bo'lgan talay muammo va kamchiliklar mavjuddir. Investitsiyalashni bank kreditlari hisobiga amalga oshirish jarayonida yuza keladigan muammolarning eng asosiylaridan biri bu ortiqcha hujjat rasmiylashtirishning ko'pligi hamda aholining, tadbirkorlarning bank faoliyatiga nisbatan ishonchining kamligi hisoblanadi.

Tijorat banklarida investitsiyalarni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan uzoq muddatli resurslarning mavjudligi drajasining pastligi. Bu holat esa tizimda uzoq muddatli resurslarni oshirish kerakligini ko'rsatib bermoqda. Tijorat banklarining moliyaviy manbasining barqaror sur'atda o'sishini taminlashda uzoq muddatli resurslarni shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat:

- bankning kapitallashtirish darajasini oshirish;
- uzoq muddatli depozitlar jalb qilish;
- subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarinichiqarish;
- bankning nokomulyativ imtiyozli aktsiyalarni chiqarish.

Bizning banklar halqaro miqyosda o'z aro aloqalarni o'rnatishda darajasining pastligi kata muammolardan biri sanaladi. Bunday holatda tijorat banklari tomonidan xalqaro reyting kompaniyalarning kreditga layoqatlilik reytinglarini olish, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, ularning kredit liniyalarini jalb qilish orqali banklarning investitsion jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi.

Respublikamizda hozirgi vaqtda hama sohada chuqur tub o'zgarishlar olib borilmoqda. Bunday rivojlantirish jarayonlaridan biri bu moliya bozorlaridagi o'zgarishlarni kiritishimiz mumkin. Jahon amaliyotidan shuni ko'rishimiz

mumkinki banklar o'zining umumiy faoliyatidan tashqari ko'plab boshqa faoliyat, hizmatlarni amalga oshiradi hamda qimmatli bozorlarning faol ishtirokchilaridan sanaladi. Shunday hizmatlardan trast (agentlik) xizmatlari hisoblanib, bu jarayon tijorat banklari bilan mijoz o'rtasidagi shartnoma asosida ko'rsatiladi. Bunda qimmatli qog'ozni saqlash uchun depo schyoti ochiladi. Ko'rsatilgan xizmat uchun bank komission xaq undiradi. Bank, shuningdek qimmatli qog'ozlar bilan bajarilgan operatsiyalar uchun to'lovni o'rnatadi. qimmatli qog'ozlar portfelining shakllanishi va uni boshqarish uchun ularga doimiy axborotlar oqimi va ish analizi kerak bo'ladi, hamma investor ham bu muammoni o'zi hal qila olmaydi. Mahsus trast bo'limlariga ega bo'lgan banklar xavfsizlik, daromadlilik va likvidlilik talablariga javob beradigan qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirishga yordam beradilar. Afsuski bunday hizmat turlarini amalga oshirish jarayoni amaliyotda juda kam ko'rinadi, hattoki bunday faoliyat hizmat turini amalga oshirishi haqida bank mijozlari habardor emaslar.

Tijorat banklar qimmatli qog'ozlar bozorida faol ishtirok etgan holda qimmatli qog'ozlarni birlamchi joylashtirish bo'yicha ham xizmatlar ko'rsatishi mumkin: aksiyalarni moliya bozoriga joylashtirish (anderrayting), aksionerlar reestrlarini yuritish, yillik foydani to'lash kabilardir. Ln bunday bank faoliyati uchun hamda iqtisodiyotimiz uchun ham foydali bo'lgan bunday faoliyatlarni amaliyotda juda kam ko'ramiz yoki umuman bunday jarayonga duch kelmaymiz.

Trast operatsiyalarining foydalilik jihatiga nazar soladigan bo'lsak, bank ishida va banklarning sanoat va iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan aloqalarida katta rol o'ynaydi.

Trast operatsiyalarini banklarda paydo bo'lishi yana bir bor tijorat banklariga bo'lgan ishonchni katta ekanligidan dalolat beradi. Sababi shundaki, juda badavlat insonlar tomonidan hali balog'at yoshiga etmagan farzandlari nomiga qoldirilayotgan boyliklarni, ularning vafotidan so'ng boshqarish muammosini yuzaga kelishi banklarnig trast operatsiyalarini paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Banklar ushbu mablag'lari fazandlar balog'at yoshiga etgunga qadar, ishonchli tarzda boshqaradilar. Bizning bank amaliyotida esa bunday

holatlar umuman ko'zga tashlanmaydi. Yana trust operatsiyalar sirasiga mijozning qimmatli qog'ozlari portfelini yoki ushbu portfelning bir qismini hamda u bilan bog'liq bo'lgan pul mablag'larini boshqarish tijorat banklarining trust operatsiyalari tashkil qiladi.

Tijorat banklari trust operatsiyalarini amalga oshirish tufayli birinchidan, qimmatli qog'ozlarni joylashtirish, birjadagi operatsiyalarda foydalanishi mumkin bo'lgan uzoq muddatli moliyaviy resurslardan bahramand bo'la oladi. Ikkinchidan, trust operatsiyalariga bog'liq bitimlarni banklar o'z mijozlarining shartnomalari asosida amalga oshiradi, shuning uchun bitimlar qonunlar bilan cheklanmaydi. Uchinchidan, bank qimmatli qog'ozlarni boshqarishdan komission mablag'lar olib, o'zi boshqarayotgan qimmatli qog'ozlardan tushayotgan foydadan o'z ulushini oladi. To'rtinchidan, bank o'z sarmoyalari bilan emas, balki o'zgalar sarmoyalari bilan operatsiyalar o'tkazadi va faqat trust shartnomasi doirasidagina javobgar bo'ladi, asosiy tavakkalchilik esa qimmatli qog'ozlar egasining zimmasida bo'ladi. Yuqoridagi tafsilotlardan shuni ta'kidlashimiz mumkinki tijorat banklarida trust operatsiyalarining yuqori sur'atlarda amalga oshirish investitsiya loyihalarni moliyalashtirish uchun talab qilinadigan qo'shimcha moliyaviy resurslarga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Shuningdek, respublikamizda tijorat banklari balansiga olingan iqtisodiy nochor korxonalarni tiklash, ular bazasida yangi tashkil etilgan korxonalarni salohiyatli investorlarga sotish ishlari samarali amalga oshirilib kelinmoqda. Shu jarayon davomida, barcha tijorat banklar qoshida qator investitsion va injiniring kompaniyalari mavjud emasligi ham faoliyatda ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida» 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qaroriga asosan, moliya-bank faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, zamon talablari va xalqaro normalar hamda standartlarga muvofiq holda amaldagi qonun hujjatlariga

o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda yangi qonun hujjatlari va me'yoriy hujjatlar qabul qilish, shuningdek kreditlar bo'yicha muammoli qarzlarning hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik borasida oldini olish choralari ko'rish yo'li bilan tijorat banklarining kredit portfeli muttasil o'sishi hamda sifati yaxshilanishini ta'minlash respublikaning moliya-bank tizimini isloh qilish va barqarorligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarorining 1-ilovasi 32-bandida, bank tavakkalchiliklarini boshqarishda chuqur omilli tahlilni amalga oshirishning aniq mexanizmini joriy qilish, zaxiralarni shakllantirish, kredit portfelini diversifikatsiyalashni ko'zda tutgan holda banklar aktivlari sifati monitoringini takomillashtirish, shuningdek muammoli qarzdorlik paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan ogohlantiruvchi choralar qabul qilish belgilangan. Shunday ekan qonuniy asos mavjud faqat buni amaliyotda yuzaga chiqarish kerak holos. Ko'p hollarda tizimda ko'plab ishlar, masalalar qog'ozda qolib ketmoqda.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir fuqaro tadbirkor bolishi kerakligini talab qilmoqda. Shu asnoda iqtisodiyotimizga yangi tadbirkorlar avlodi hamda bank hodimlarining yangi kuchlari iqtisodiyotimizga kirib kelmoqda. Ularning ko'pchiligi hech qachon mustaqil ish yuritmaganlar, korxona boshqarmaganlar. Shu sababli ular bozor iqtisodiyotida vujudga keladigan muammolarni tasavvur ham qila olmaydilar. Banklar bunga tayyor bo'lib ularga yordam berishlari va o'zlari ham bu masalani to'liq bilishlari kerak. Shunday ekan yangi avlodni barcha jabhalarda o'qitib, sayqallashtirib borish kerak va shart hisoblanadi.

Bu jarayonda ham bizning bank tizimimizda suskashliklar mavjud bo'lib natijada jozibador lekin kelajagi to'liq tahlil qilinmagan loyihalarni moliyalashtirishda, tarmoqlarda taminlanmagan kreditlar hissasi kop bo'lib tizimda muammolar kelib chiqmoqda.

Tarmoqlarga ta'minlanmagan kreditlarning berilishi bank kreditlarining bankka qaytib kelmasligiga asos bo'ladi. Bu o'z navbatida bankning likvidligiga va

pul muomalasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar tomonidan beriladigan kreditlarning tovar moddiy-boyliklari va xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishiga alohida e'tibor berish shartdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, banklar faoliyatidagi eng asosiy muammolardan biri, berilgan ssudalarning qaytarilmasligidir. Ushbu muammoni qisman hal etish, ya'ni mijoz tomonidan kreditni qaytara olmaslik riskini kamaytirish yo'llaridan biri mijoz mulkining ma'lum qismini berilgan kredit uchun garov sifatida talab qilishdir.

Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni rivojlanmaganligi tizimda ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Banklarimizning likvidlilik darajasi anchagina past hisoblanib, bu esa keng ma'noda banklarga nisbatan ishonchni pasaytirmoqda.

“Likvidlilik keng ma'noda qarzdorning kreditor oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olishi hisoblanadi. Likvidlilik iqtisodiyotning barcha sohalari uchun xarakterli bo'lib, shu bilan birga o'ziga hos bank muammosi hisoblanadi. Ana shu muammo bizning bank tizimimizda mavjud holat hisoblanadi. Chunki pul bir vaqtning o'zida bankning ham aylanma kapitali, ham faoliyati mahsuli bo'lib, korxonalar aktivi esa asosan natural ko'rinishda bo'ladi.

Bank likvidliliigi bu bankning o'z oldida turgan majburiyatlarini bajara olishi, mijozlarning kredit istemoli ehtiyojlarini qondirishi va omonatchilarning depozitlarni qaytarib olish bo'yicha talablarini qondira olish qobiliyatidir. Agar bankning likvidlilik darajasi yuqori bo'lsa bankning bozorda havfsizligi va qarzlarni o'z vaqtida qaytara olishga qodirligini oshkor qiladi, bankka aktivlarni foydasiz sotish yoki banklar aro bozorda mablag'larni jalb qilish bilan bog'liq bo'lgan foydani yo'qotish xafidan qutilish imkonini beradi.”³⁷ Shunday ekan respublika banklari uchun likvidlilik darajasini oshirish eng ustuvor masaladir.

Hozirgi kunda kreditlash sohasida eng asosiy muammolardan biri bu – kreditning to'liq va o'z vaqtida qaytarilishi hisoblanadi. Bu o'rinda kredit

³⁷ Bank ishi fanidan ma'ruzalar matni. Moliya institute. Toshkent 2015y. 326bet. 185/bet

monitoring juda katta ahamiyatga ega. Kreditlarning to'liq qaytib kelmasligiga asosiy sabab, "kredit tanlovi"ning iqtisodiy tamoyilga mos tushmay qolishidir. Bu yo'qotishlar, xatolar bevosita kredit oluvchi sub'ekt haqida ma'lumotlarning yetarli emasligi yoki obyektiv emasligidan yuzaga keladi. Buning uchun xorijiy amaliyotda keng qo'llanilib kelinayotgan va hozirda O'zbekistonda ham amaliyotga tadbiq qilinib borilayotgan kredit byurosini tashkil qilish, unda markazlashgan holda mijozlar haqida to'liq ma'lumotlar bera oladigan axborotlar bazasini yaratish va uni ishonchli va obyektiv ishlashini shakllantirish banklar uchun, iqtisodiyot uchun, bir bank infrastrukturasi uchun katta foyda keltiradi.

Birinchidan, tezkor ma'lumotlar asosida banklar hamda mijozlar vaqtdan yutadilar.

Ikkinchidan, bu tezkor ma'lumotlar kredit harajatlarini pasaytiradi.

Uchinchidan, bank faoliyati operativligini, barqarorligini, salohiyatini oshiradi va albatta, kredit monitoringi ishlari ham qisman yengillashadi, hususan muammoli kreditlarning kamayishi hisobiga. Shunday ekan tijorat banklarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda to'liq kredit monitoringini olib boorish muammo bo'lib qolmoqda.

Istiqbolda tijorat banklar tomonidan mahalliy hokimliklar bilan birgalikda quyidagi masalalarga asosiy e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- jalb etilayogan xorijiy kreditlarni mamlakatimizning barcha mintaqalariga yo'naltirish, shu bilan bir qatorda, ushbu mablag'larni eng avvalo tarkibiy qayta o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnologik yangilashni jadallashtirish va sanoat kooperatsiyasi asosida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish loyihalarini moliyalashtirish uchun yo'naltirishga alohida e'tibor qaratish;

- xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratilayotgan mablag'larni oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, jumladan, go'sht-sut va meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashga qaratilgan loyihalarga yo'naltirish, tadbirkorlarning ushbu mablag'larni o'zlashtirishiga har tomonlama ko'maklashish;

–xorijiy kredit liniyalarining afzalliklarini inobatga olgan holda hududlardagi mavjud bo'sh turgan va faoliyatsiz binolar negizida yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish va bunda asosiy e'tiborni jahon bozorlarida va ichki bozorlarda talab mavjud bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, mahsulot ishlab chiqarishda material va energiya sarfini kamaytirish bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratish;

– mehnat resurslari ortiqcha hamda uzoq va borish qiyin bo'lgan tuman va shaharda xorijiy kredit liniyalari hisobidan yuqori texnologiyali va innovatsiya loyihalarini amalga oshirish, mazkur hududlarda aholi bandligini ta'minlash va turmush farovonligini yuksaltirish yuzasidan tegishli choralar ko'rish.

3.2 Investitsiya loyihalarini bank kreditlari hisobiga moliyalashni takomillashtirish yo'llari

Xususan mamlakatimiz prezidentining 2010 yil 16 noyabrdagi “ 2011- 2015 yillarda respublika moliya – bank tizimini yanada isloh va barqarorlashtirishni oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatgichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi PQ – 1438 sonli Qaroriga muvofiq moliya bank barqarorligini baholash tizimini barqarorlashtirish, tijorat banklar investitsion faolligini oshirish, mamlakatning kredit reytingi aniqlash uslubiyatlarini takomillashtirish, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, banklarning xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi rolini oshirish borasida bir qator ishlarga erishildi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, tijorat banklarning investitsion jarayonlarida faol qatnashishi iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda va mamlakatning iqtisodiy salohiyotini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi. Ya'ni, “Barchamiz oddiy bir haqiqatni anglab olishimiz darkor - investitsiyalarsiz modernizatsiya ham, yangilanish ham bo'lmaydi. Bu o'rinda nafaqat korxonalar tomonidan investitsiya loyihalarini oshirish jadallashtirishni, balki bundan tijorat banklari qanchalik manfaatdor ekani va ular bu loyihalarni o'z kredit resurslari bilan nechog'lik faol

ishtirok etayotganligini ham ko'zda tutamiz. Buning uchun tijorat banklar yetarli kapitalga ega, moliyaviy barqaror bo'lishi lozim., bir so'z bilan aytganda ular yirik investitsiya institutlariga aylanishi darkor ³⁸. Tijorat banklarning yirik investitsiya institutlariga aylanishi o'z navbatida, iqtisodiy barqarorlikka erishish muhim o'rin tutadi.

Tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyat olib borishdan asosiy maqsad ularning daromadligi va likvidligini taminlashdan iborat. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti tijorat banklar investitsion siyosati bank faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va banklarning likvidligini taminlashda asosiy rol o'ynaydi.

Bank tizimi va qimmatli qog'ozlar bozori milliy iqtisodiyotning yetakchi sohalardan hisoblanib, davlat tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar, farmonlar, qarorlar va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlari ushbu sohalarni rivojlantirishga qaratilgan

Tijorat banklari tobora o'zlariga xos bo'lmagan operatsiyalarini amalga oshira borib banklar uchun noan'anaviy hisoblangan moliya tadbirkorligini joriy etmoqda, jumladan, qimmatli qog'ozlar operatsiyasi, lizing va faktoring hamda kredit-moliya xizmatining boshqa turlari bilan shug'ullanmoqda, taqdim etiladigan xizmatlar doirasini tinmay kengaytirib, sifatini yaxshilamoqda, Yangi istiqbolli mijozlarni jalb qilish uchun raqobatlashmoqda.

O'zbekistonda banklarning investitsion faoliyatini rivojlanish istiqbollari quyidagicha:

- banklarning investitsion riskini sug'urtalash tizimini ishlab chiqish va qo'llash, investitsiya va risklarni sug'urtalash fondini tashkil etish;

- market – meyker institutini rivojlanishiga soliq imtiyozlarini yaratish qimmatli qog'ozlar likvidligini va bozor kotirovkasini ta'minlaydi, bu esa fond bozorida banklarning investitsion faolligini oshiradi.

³⁸ Krimov.I.A Asosi maqsadimiz- vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. Toshkent "O'zbekiston" 2010-B. 57

- qimmatli qog'ozlar bozorida banklar faoliyatini reyting baholashini ishlab chiqish va qo'llash.

- qimmatli qog'ozlar bozorida banklar va sug'urta kompaniyalarning investitsion faoliyatini faollashtirish.

- milliy qimmatli qog'ozlar bozorini xalqaro fond birjalar bilan integratsiyalashuvini ta'minlash, bu esa banklarning investitsion faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Respublika moliya-bank tizimi barqarorligi va salohiyatini oshirish, banklar va butun moliya-bank tizimi faoliyatiga yondashuvlarni hamda baholash tizimini tubdan o'zgartirish, umumqabul qilingan xalqaro normalar, standartlar va baholash ko'rsatkichlariga muvofiq banklar faoliyatini tashkil etishning yanada yuqoriroq darajasiga chiqishini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalarning bajarilishiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida banklarda kreditlash jarayonlari optimallashti va soddalashti, banklarni boshqarish sifati yaxshilandi, sohada raqobat muhiti kuchaydi, kreditlash hajmlari oshishi kuzatilmoqda.

Bugungi kunda bank biznesi Respublikamiz iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri bo'lib, sohadagi aktivlar, kapital darajasi, kredit qo'yilmalari va investitsion amaliyotlar hajmi kabi asosiy ko'rsatkichlarining o'sish sur'atlari buni yaqqol tasdiqlamoqda. Yaratilgan qulay investitsiyaviy muhit, jumladan, banklarning kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab tabaqalashtirilgan foyda solig'i stavkalarining joriy etilganligi tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tizimda erishilgan yutuqlarni e'tirof etgan holda, islohotlarning mantiqi va izchilligi, shuningdek, ularning eng zamonaviy bozor me'yorlariga muvofiqligini baholash mamlakatimiz bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirishni talab etmoqda. Chunki mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi, ko'p jihatdan bank sohasining samarali faoliyatiga bog'liqdir.

Bu borada tijorat banklarining kredit faoliyati birinchi navbatda mijozlarning bank kreditlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, bankning o'z va jalb qilingan mablag'larini qulay shart-sharoilarda joylashtirish orqali daromadlilikini oshirish, bank aktsiyadorlarining yuqori daromad olishlarini ta'minlash, likvidlik ko'rsatkichlarini me'yor talablari darajasida ushlab turish, kredit portfelini diversifikatsiyalash orqali risklarni kamaytirish, kreditlash jarayonlarida qonun va me'yoriy huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini, kreditlash bo'yicha yangi bank mahsulotlarini joriy etilishini ta'minlashdan iborat bo'lishi lozim.

Banklarning kapitallashuv va likvidlik darajasining oshirilishi, depozitlarning yuqori sur'atlarda o'sishi bir tomondan ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va mustahkam resurs bazani shakllantirish uchun zamin yaratasa, ikkinchidan iqtisodiyotni rivojlantirishga hamda tijorat banklarining investitsiyaviy faoliyatini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda

Shuni ta'kidlash joizki, keyingi yillarda bank tizimini yanada rivojlantirishda banklarning moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash va investitsiya faolligini oshirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib, ushbu vazifalar doirasida tijorat banklarining resurs bazasini yanada kengaytirish, ularning investitsiyaviy faolligini kuchaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirishga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladigan kreditlar hajmlarini ko'paytirish kabi muhim chora-tadbirlarni samarali amalga oshirishni taqozo etadi.

Tijorat banklarining resurs manbalarini kengaytirish borasida depozit va omonatlarning yangi turlarini muntazam ravishda joriy qilish, tijorat banklarida aholidan jamg'arma va muddatli depozitlarni qabul qilish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish kabi tadbirlarni amalga oshirish aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning depozitlar hajmining oshirilishiga zamin yaratadi. Bu esa tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirishga hamda investitsiya jarayonlarida faol ishtirok etishiga, ko'proq investitsiya loyihalarini moliyalash imkoniyati yuzaga keladi. "2018 yilda tijorat banklari tomonidan

iqtisodiyotning real sektoriga ajratiladigan kredit qo'yilmalari hajmining 25 foizga ko'payishi prognoz qilinmoqda.³⁹

Shuni ta'kidlash joizki tijorat banklarining kredit portfeli muttasil o'sishi hamda sifati yaxshilanishini ta'minlash, investitsiyalarni bank kreditlari hisobiga moliyalashtirishni takomillashtirishda, shuningdek kreditlar bo'yicha muammoli qarzlarning hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik borasida qidagi keltirib o'tilgan takomillashtirish yo'llarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

- loyihalarni tanlash, ekspertiza qilish va xatarni baholash tizimi takomillashtirish zarur, bunda investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish va moliyalashni tashkil etish bo'yicha tijorat banklarining maxsus xizmatlari malakali mutaxassislar bilan mustahkamlash kerak bo'ladi;

- jahonning eng barqaror banklari tajribasini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan zamonaviy uslubiyotlar asosida banklar mijozlarining kreditga layoqatliligini skoring-tahlil qilish tadbirlari amalga oshirilmoqda huddi manshu jarayonni ichki nazorat qilishni amalga oshirish;

- tijorat banklari kredit portfeli monitoringini amalga oshirish mexanizmi yanada kuchaytirish va takomillashtirish bo'yicha zarur choralar ko'rish. Bunda garovga olingan mulkning doimiy bozor qiymatini hisobga olgan holda berilgan kreditlar ustidan monitoringni kuchaytirish va garovdagi mulk bahosi tushib ketgan vaziyatda zudlik bilan tegishli choralar ko'rish borasida tegishli ishlar amalga oshirish;

- banklar kredit portfelini diversifikatsiya qilishni kuchaytirish, risklarning bir qarzdorda (yoki o'zaro bog'liq qarzdorlar guruhi), kreditlash ob'ektida, faoliyat turi va tarmoqda to'planishini nazorat qilish mexanizmlari yanada takomillashtirish;

- har bir kredit ajratilayotgan loyiha bo'yicha pul oqimi va daromadlar etarli darajada bo'lishiga alohida e'tibor berish;

³⁹ Bank-moliya akademiyasi 2017 yil 26 aprel "O'zbekiston Respublikasida moliyaviy institutlarning investitsion faolligini yanada jadallashtirishning dolzarb masalalari" mavzusida o'tkazilgan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi tezislari to'plami.

- birgalikda yangi xizmat turlarini yaratish va tavakkalchilikni diversifikatsiyalashda tijorat banklari bir birlar bilan va sug'urta kompaniyalarining birgalikdagi amaliyotlari yanada kengaytirish;

- banklar kapitallashuv darajasini oshirish, bank sohasiga xususiy kapitalni jalb etish, qo'shimcha aktsiyalarni chiqarish va ularni fond bozorlarida joylashtirish orqali banklarning jami kapitalini yil mobaynida kamida 20 foizga o'sishini ta'minlash borasida tegishli ishlar amalga oshirish;

- ko'rsatilayotgan bank xizmatlarining turi va ko'lamini kengaytirish yo'li bilan aholi hamda xo'jalik sub'ektlarining bo'sh mablag'larini bank aylanmasiga keng jalb etishda ta'sirchan rag'batlantirish choralari amalga oshirish;

- kreditlashning resurs manbalarini shakllantirishda asosiy e'tibor ichki imkoniyatlarga, ya'ni aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini bank aktivlariga jalb qilish hamda uzoq muddatli obligatsiyalar va depozit sertifikatlarini chiqarish va pul bozorida joylashtirishga qaratirish;

- tijorat banklari tomonidan xo'jalik birlashmalari va yirik korxonalar bilan investitsion loyihalarning loyiha va boshqa xujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha injiniring kompaniyalarni tashkil etish ishlari olib borish;

- moliya bozori infratuzilmasini yanada mustahkamlash yo'li bilan aholi hamda xo'jalik sub'ektlarining bo'sh mablag'larini bank aylanmasiga keng jalb etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirish;

- tijorat banklarni o'zgaruvchan bozor xolatiga o'z vaqtida va to'g'ri baho berish qobiliyatiga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlar bilan mustahkamlash borasida tijorat banklari xodimlarining uzluksiz ravishda o'quv kurslar va seminarlarda malaka oshirilishi ta'minlash zarurdir.

III bob bo'yicha xulosa

Respublikamiz iqtisodiyoti hali yosh iqtisodiyotlar sirasiga kiradi, lekin shunday bo'lsa ham iqtisodiyotimizda 25 yil mobaynida har bir mamlakat orzu

qiladigan darajadagi sezilarli ishlar amalga oshirildi hamki, bu iqtisodiyotning rivoji investitsiyalarga bog'liqligini ko'rsatib qo'ydi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq bank sektoriga berilgan kata e'tibor hozirgi kunda o'zini oqlab kelmoqda. So'ngi yillarda bank sohasida sezilarli darajada o'zgarishlarni kuzatishimiz mumkin har jabhada bankning ishtiroki hamda roli ortib bormoqda.

Bir holat haliham achinarli hol hisoblanib bu albatta aholi va tadbirkorlarning bank sohasiga bo'lgan ijobiy ishonchi pastligidir. Bu esa shuni ko'rsatadiki baklarimizning likvidlilik darajasi pastligini.

Demak, shunday ekan bizdan bir narsa talab qilinadiki bank sohasida yanada yangi islohotlarni amalga oshirish kerak, aholining qo'lida jamlanib qolgan bo'sh pul mablag'larini jalb qilishda yangi bosqichga, yangicha yondashuvlarni amalga oshirish, talab qilinadi. Bu esa kreditlash sohasida yanada ko'roq ishlarni, yirikroq hamda iqtisodiyotimiz uchun yangi bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratishda turtki bo'lar edi.

Tijorat banklarini investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda quyidagilarni amalga oshirish lozim deb hisoblayman:

- tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish maqsadida aholi va xo'jalik sub'ektlari talablarini hisobga olgan holda depozit va omonatlarning yangi turlarini muntazam ravishda joriy qilish, bunda banklarda omonatlarning ko'payishiga, ularning bank tizimiga jalb etishiga nimalar to'sqinlik qilayotganini har tomonlama chuqur tahlil qilish va bu borada qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish;

- tijorat banklarining tahliliy ishlar bo'yicha faoliyatini va bank tavakkalchiligining oldini olishni kuchaytirish, bunda har qanday bank o'zining professional faoliyatini yuritishda, kredit axboroti almashuvini tizimi bilan keng hamkorlik o'rnatishi kerak;

- progressiv fond dastaklarini, shu jumladan kommulyativ aktsiyalar, konvertatsiyalanadigan obligatsiyalar, ipoteka sertifikatlar, hosilaviy va garov

qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish va muomalaga chiqarish ko'lamini kengaytirish;

- tijorat banklari likvidlilik riskini pasaytirish va uning barqarorligini ta'minlash maqsadida nodepozit manbalar tarkibida davlatning va aktsiyadorlik jamiyatlarining likvidli qimmatli qog'ozlari hajmini oshirish. Chunki, ularni ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida sotish orqali banklarda likvidlilik riski bilan bog'liq muammolarni tezkor ravishda oldini olish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy iqtisodiyotda investitsiya loyihalarini bank kreditlari hisobiga moliyalashtirish yani sinditsiyali kreditlash xususiyatlarini va ustuvor yo'nalishlarini tadqiq qilish jarayonida quyidagi xulosa va takliflar kelib chiqdi:

1. Bugungi kunda malakatimizda iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishning mukammal huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilgan bo'lsada. Shu bilan birga iqtisodiy amaliyotning ko'rsatishicha hanuzgacha o'zaro foydali, samarali investitsiya loyihalarini tanlash, ekspertizadan o'tkazish va ularning ishlab chiqarishdagi nazariy qiymati bilan amaliyotdagi natijasini, ahamiyatini monitoring qilishning mukammal tizimi shakllantirilmagan. Shu sababli jozibali va samarali bo'lib ko'ringan ba'zi loyihalar amaliyotda o'zini oqlamayapti.

2. Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan kredit munosabatlari sohasida banklar faoliyatini birlashtirish zarurati tug'ilmoqda. Birlashmalarni tashkil etish maqsadlari xilma-xil, lekin ular bank operatsiyalari bo'yicha xatarlarni qisqartirgan holda katta ko'lamdagi tadbirlarni moliyalash bilan yoki bitta bank yolg'iz o'zi hal qila olmaydigan vazifalarni bajarish bilan bog'liq. Uzoq muddatga kredit berish bilan bog'liq xatarlar mana shunday birlashma ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanadi, bu esa a'zo banklarga o'zlarining likvid zahiralarini ancha pastroq darajada saqlab turish imkonini beradi.

3. Investitsiya loyihalarini sinditsiyali kreditlashni rivojlantirish kerak, chunki faqat shu yo'l bilan yirik loyihalarni amalga oshirish samaraliroq hisoblanadi. Sinditsiyali kreditlash faqat qurilish sohasiga emas, balki ishlab chiqarish, sanoat tarmoqlarida qo'llash kerak. Hozirgi davrda mamlakatimizda banklar tomonidan sinditsiyalashgan kredit orqali loyihalarni moliyalashtirish asosan qurilish sohasidagi loyihalarga ajratish bilan cheklanib qolinmoqda.

4. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiyalarni ko'p mehnat talab qilinadigan tarmoqlar va sohalarga, xususan qayta ishlab chiqarish,

to'qimachilik, kimyo sanoati, elektrotehnika sohasiga yo'naltirish maqsadga muvofiq bolardi.

4. Respublikamiz hududlariga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishda mahalliy xokimiyat organlari mintaqalarning uzoq muddatli investitsiya dasturlarini ishlab chiqishlari va amaliyotga tadbiq etishlari zarur.

5. Investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarini mamlakatni uzoq muddatli rivojlantirish prognozlari bilan uzviy bog'liqlikda ishlab chiqish lozim. Investitsiyalarni yo'naltirishning yana bir ustuvor vazifalaridan biri sanoat va qishloq xo'jaligida eskirgan asosiy ishlab chiqarish vasitarini yangilash, texnik-texnologik jihatdan modernizatsiya qilish va eksportbop qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, qadoqlash va tara xo'jaligini rivojlantirishdan iborat.

6. Respublikamizga jalb qilinayotgan investitsiyalarni yo'naltirishda iqtisodiyotning mikro va makro darajasida mutanosib va muvozanatli rivojlanishiga asos bo'ladigan shart-sharoitlarni vujudga keltirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir hamda loyihalarni moliyalashtirishda bank tomonidan aholining bo'sh turgan mablag'larini jalb qilish va ularni investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirishning qulay va optimal yo'llarini ishlab chiqish hamda amaliyotda faol qo'llash zarur.

7. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotga ko'rsatadigan ijobiy ta'sirini yanada kuchaytirish chora-tadbirlarini amaliyotga tatbiq etish lozim. Bunda moliyalashtiriladigan loyihani xorijiy investorlar bilan birgalikda tijorat banklari o'rtasidagi hamkorlikda olib boorish zarur. Ushbu maqsadda bank hizmat ko'rsatayotgan xorijiy investorlarni milliy iqtisodiyotning xalqaro savdoda raqobatga bardosh beradigan tarmoqlariga jalb etish, aholini ish bilan ta'minlashga xizmat qiluvchi loyihalarni, mahalliy bozorga xizmat qilishga mo'ljallangan investitsiyalar bilan bir qatorda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning istiqbolli sohalarida ko'proq eksportga yo'naltirilgan investitsion loyihalarni amalga oshirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashning bozor mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari yaratiladi.

8. Tijorat banklarida har bir viloyat, shahar va tuman filiallarida investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoring qilish bo'yicha departamentlar (boshqarmalar) tuzish, investitsiya loyihalarini moliyalash va amalga oshirilishini monitoring qilish bilan shug'ullanuvchi banklarning tarkibiy bo'linmalar tashkil etish. Bu o'z navbatida banklarning investitsiyalash jarayonida tog'ridan tog'ri ishtiroki, loyihaning shaffofligini, hamda moliyalashtirish muddatining kmayishiga olib keladi.

9. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali to'lov tizimini yanada rivojlantirish, bank xizmatlari, shuningdek bank infratuzilmasini, ayniqsa qishloq joylarida sifatini yaxshilash va turlarini kengaytirish hamda hozgi kunlarda qishloq xo'jaligiga kirirtilayotgan investitsiyalarni moliyalashtirish hamda ularga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish kerak.

10. Bank investitsiya faoliyatiga o'z mablag'lari bilan birga, tashqaridan moliyalashtirish manbalarini jalb etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishi kerak.

O'z navbatida, aniqlangan muammolarni hal etish, mamlakat investitsiya faoliyatini rivojlantirish hamda tijorat banklarining investitsiya faoliyatidagi ishtirokini oshirish maqsadida quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar keltirildi:

1. Tijorat banklarning qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq, bo'lgan investitsion faoliyatini oshirish lozim. Buning uchun, birinchidan, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning bank aktivlarining umumiy hajmidagi salmog'ini oshirish lozim; ikkinchidan, bankda emitentlarning moliyaviy holatini baholash tizimini takomillashtirish lozim.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat veksellari debitor-kreditor qarzdorlikni qisqartirishning, tovarlarni sotilish jarayonini tezlashtirishning korxonalarning qo'shimcha pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirishning va tijorat banklariga yuqori daromad keltirishning sinalgan va muhim instrumentlari hisoblanadi. Afsuski, respublikamizning xo'jalik amaliyotida tijorat veksellarining

muomalasi mavjud emas. Bu esa tijorat banklariga veksellar bilan bog'liq, operatsiyalarni amalga oshirish imkonini bermaydi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning xususan, AQSH, Yaponiya va G'arbiy Yevropa davlatlarining bank amaliyotida tijorat veksellaridan tijorat banklari faoliyatida yuqori daromad olish va bank likvidligini ta'minlash vositasi sifatida faol foydalaniladi. Ya'ni, birinchidan, tijorat banklarining balansidagi tijorat veksellarining ma'lum qismi Markaziy bankda qayta hisobga olinadi. Bundan tashqari, xorijiy valyutalarda yozilgan qimmatli qog'ozlarning ma'lum qismi xorijiy banklarda hisobga olinadi va xorijiy investitsiyalarni jalb etishning bir shakli hisoblanadi.

2. Tijorat banklarining investitsiya loyihalari kreditlari samaradorligini oshirish, ular bilan bog'liq bo'lgan muddati o'tgan qarzdorlikni kamaytirish maqsadida:

- banktomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirishda biznes rejalardagi ko'rsatkichlarning ishonchli ekanligini tekshirish va ularga ta'sir qiluvchi omillarni baholash tartibini takomillashtirish lozim;

- muddati o'tgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'ining 5 foizdan oshmasligi xususidagi talab alohida ko'rsatkich sifatida yirik tijorat banklarining kredit siyosatida belgilab qo'yilishi va unga rioya qilish ustidan monitoring va nazorat Bank Boshqaruvi va Kengashi tomonidan doimiy ravishda olib borilishi lozim;

- o'zini oqlamagan loyihalarga berilgan kreditlarning garov ta'minotini sotishni tezlashtirish va boshqa ta'minot ob'ektlari realizatsiyasi ijrosini ta'minlash.

Garovga qo'yilgan mulklarni qiymatini qadrsizlanishi masalasi ham muhim bo'lib, ularni har-yili qayta baholashining to'g'riligini, shu mulklarni baholovchi-ekspertlar tomonidan berilgan xulosalarga mos kelishini nazorat qilish lozim. Bunda qayta baholash qaysi usulda amalga oshirilganligi va uning to'g'riligini nazorat qilish kerak. Buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilgan qiymat baholovchi-ekspert tomonidan berilgan xulosa bilan taqqoslanadi.

Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalari kreditlarining ta'minoti uchun garovga olingan mol-mulklarni sotishdan oladigan oborotlari qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmasligi aniq keltirilishi zarur.

3. Tijorat banki xodimlarining investitsiya loyihalari kredit oluvchilarning moliyaviy hisobotlari ko'rsatkichlarining ishonchliligini aniqlash va ularni tahlil qilish borasidagi bilim va malakalarini oshirishni ta'minlash asosida mijozlarning investitsion kreditlar bo'yicha to'lovga layoqatliligini baholash tartibini takomillashtirish lozim.

4. Kredit hujjatlarini tijorat bankining kredit qo'mitasida ko'rib chiqish jarayonini takomillashtirish lozim.

Taqdim etilgan kredit hujjatlar yig'majildi qo'mita majlisida ko'rib chiqilishidan avval, qo'mita a'zolarining mazkur sub'ektni kreditlashga doir yozma xulosasi berilishi lozim. Qo'mita a'zolarining 2 ta a'zosi xulosa bermagan taqdirda mazkur sub'ektga kredit berish masalasi a'zolardan to'liq xulosa olingunga qadar qo'mita yig'ilishiga kiritilishi mumkin emas. Lekin bu muddat 3 kun dan ortib ketishiga yo'l qo'yilmaslik lozim.

5. Tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash maqsadida, ular tomonidan bir yildan ortiq muddatga chiqarilayotgan obligatsiyalarning emissiya hajmini oshirish va investorlarning mazkur obligatsiyalardan oladigan daromadlarni foyda (daromad) solig'idan ozod qilish lozim.

6. Respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarini xalqaro fond birjalarida sotishni ta'minlash lozim.

O'zbekiston tijorat banklarining aksiyalarini xorijiy investorlarga sotish natijasida jalb qilingan mablag'lardan banklarning investitsion kreditlari hajmini oshirishda foydalanish mumkin.

7. Respublikamiz tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. -25 b.

1.2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: «Adolat», 2016 y. – 400 b.

1.3. O'zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi Qonuni. 1998-yil 30-aprel.

1.4. O'zbekiston Respublikasining “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida”gi Qonuni. 1998-yil 30-aprel.

1.5. O'zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonuni. 2014-yil 10-dekabr.

1.6. O'zbekiston Respublikasining “Garov to'g'risida”gi qonuni. Toshkent sh. 1998 yil 1 may 614-I-son

1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi PF-4434-sonli “To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni.

1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-sonli “O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni.

1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 15-apreldagi PQ-2164-sonli “Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.

1.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 21-dekabrdagi PQ-2454-sonli “Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi PF-4853-sonli “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 23-dekabrdagi PQ-2697-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi Qarori.

1.13. “Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent sh. 2009 yil 28 iyul.

1.14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12-yanvardagi PF-4931-sonli "Urgut", "G‘ijduvon", "Qo‘qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31-martdagi PF-4996-sonli "O‘zbekiston Respublikasi investisiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.17. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. – T.: “O‘zbekiston”, 2012. 36 b.

1.18. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. – T.: “O‘zbekiston” 2013. 63 b.

1.19. Karimov I.A. “2014 yil yuqori o‘shish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi”.-T.: “O‘zbekiston”, 2014. 64 b.

1.20. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. –T.: O'zbekiston. 2015. 74 b.

1.21. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir”. 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.-T.:2016. 72 b.

1.22. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: “O'zbekiston”, 1995. 200 b.

1.23. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz.-T.: “O'zbekiston”, 2001. -157 b.

1.24. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz -Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.-T.: “O'zbekiston”, 2010. -57 b.

1.25. Karimov I. A. “2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yi'li bo'ladi” T.: O'zbekiston 2014. – 6 bet.

1.26. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017 y. -48 b.

1.27. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017 y. -56 b.

1.28. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017 y. -104 b.

1.29. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2008 yil 22 noyabrdagi 685-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi

hududida xorijiy davlatlarning banklari vakolatxonalarini akkreditatsiya qilish tartibi to'g'risida'gi Nizom (Adliya vazirligida 2009 yil 23 yanvarda 1883-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan).

1.30.Avdokushin E.F. Mejdunarodnye ekonomicheskie otnosheniya. Moskva: "YUrist", 1999. – 368 s.

1.31.Adrianov V.D. Rossiya: ekonomicheskiy i investitsionnyy potencial. Moskva:"Ekonomika", 1999. – 296 s.

1.32.Aladin V.V. Investitsionnaya deyatel'nost' sub'ektov Rossiyskoy federatsii. – M: Sotsium, 2002. S.17.

1.33.V.A.Moskvin. Upravlenie riskami pri realizatsii investitsionnix proektov.M.:FiS, 2004. – s.174

1.34.Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Moliya, 2010 y. 320 bet.

1.35.Danko T.P., Okrut Z.M. Svobodnye ekonomicheskie zony v mirovom xozyaystve. Moskva:INFRA-M, 1998. – 168s.

1.36.Deveryuks D., Roberts B. Pryamye inostrannye investitsii i blagosostoyanie v stranax s perexodnoy ekonomikoy: na primere Sentralnoy Azii. Ekonomicheskoe obozrenie. 1998, 3 nom, 49 str.

1.37.Hikmatov A. Iqtisodiy islohotlarni erkinlashtirish va investitsiya siyosati. Bozor pul va kredit jurn. 2000. №6. 49-40 b.

1.38.Kayumov R., Xojimatov R. Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. - T.: TDIU, 2010. 188 b.

1.39. Lorens Dj. G., Maykl D. Dj. Osnovi investirovanie.-M.: "Delo", 1997. Str. 10

1.40. Madumarov H. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish omillari. Bozor pul va kredit. Toshkent: 2010. №5. 25-27 b.

1.41. Mamatov B.S., Xujamkulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2014. 608 b.

1.42. Maqsudov F., Anorqulova I. O'zbekiston iqtisodiyoti uchun bevosita xorijiy investitsiyalar: ishlarning borishi va istiqbollari. Bozor,pul va kredit. 5-son, 1997. 6-b.

1.43.Imomov Hamdulla”Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” T: 2011 yil 27 - b.

1.44. Nasretdinov S. Jozibador investitsion muhit–iqtisodit yuksalish negizi. Bozor pul va kredit. Toshkent: 2007. №7. 9-10 betlar.

1.45. Oblomuradov N.N. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. Toshkent:O'zMU, 2001. – 24bet.

1.46. Raimjonova M.A. Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. Toshkent: Extremum-press, 2013.176 b.

1.47. Xaydarov N. X., Ubaydullaeva S.F. “Xorijiy investitsiyalarni muvofiqlashtirish masalalari”. Toshkent - 2011y.

1.48. Xaydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2003. 29 b.

1.49. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. -T.: “Moliya” nashriyoti, 2003. 14-15-b.

1.50. SHarp U., Aleksandr G., Beyli Dj. INVESTITSII: Per. s ang. – M.: INFRA-M, 2003. – XII, S.1.

1.51. SHEvchuk D.A. Organizatsiya i finansirovanie investitsiy. Rostov n/D.: Feniks, 2008. – 272 s.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

2.1. O'zbekistonda qurilish. Statistika to'plam. –T.: Yig'ma-axborot ishlari boshqarmasi, 2016. -177 b.

2.2. Finansovo-kreditnyy slovar. T. 1. – M.: «Finansy i statistika», 1984. - S. 470.

2.3. O'zbekiston iqtisodiyoti axborot tahlil byulliteni 2016 yanvar – dekabr oylari. «SEAL MAG» Toshkent 2017y

2.4. Alisher Ismailov, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari “iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish – ustuvor masala” mavzusidagi ilmiy amaliy anjumandagi ma'ruzasi. Toshkent 2016 yil

2.5. Iqtisodiyot Vazirligi “O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturi doirasida 2016 yil ning yanvar – dekabr oylarida investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi to'g'risida ” ma'lumoti.

2.6. Bank-moliya akademiyasi 2017 yil 26 aprel “O'zbekiston Respublikasida moliyaviy institutlarning investitsion faolligini yanada jadallashtirishning dolzarb masalalari” mavzusida o'tkazilgan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi tezislari to'plami.

2.7. 24.08.2016 yil "Qishloq qurilish bank" ATB tomonidan Milliy matbuot markazida bo'lib o'tgan anjumanda bank tomonidan dasturda belgilab berilgan vazifalarning bajarilishi yuzasidan hisoboti.

2.8. “Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatning roli” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T.: TDIU, 2005.

2.9. Internet saytlari.

- <http://www.ziynet.uz> (Axborot ta'lim tarmog'i)
- <http://www.stat.uz> (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi)
- <http://www.cbu.uz> (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki)
- <http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
- <http://www.mfer.uz> (O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi)
- <http://www.mineconomy.uz> (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)
- <http://www.tfi.uz> (Toshkent Moliya instituti)
- <http://www.worldbank.org> (Jahon banki)